

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

AL- XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK :811.111+811.512.133

AXMEDOVA UGILJON KURONBOYEVNA

**Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik
xususiyatlari**

5A 220102 – Lingvistika (ingliz tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
Dots. Ermetova J.



Urganch-2014

MUNDARIJA

Kirish	4
I bob. Ingliz va o’zbek maqollari haqida nazariy qarashlar	11
1.1. Maqollar va ularning umuminsoniy xususiyatlari.....	11
1.1.1. Maqollarning xalq og’zaki ijodining boshqa janrlariga nisbatan o’xhash va farqli jihatlari.....	18
1.2. O’zbek xalq maqollarining o’zbek folklorshunosligida o’rganilishi.....	24
1.3. Ingliz xalq maqollarining ingliz folklorshunos olimlari tomonidan tadqiq etilishi.....	33
I bob bo’yicha xulosa	40
II bob. Ingliz va o’zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari	42
2.1. Ingliz va o’zbek maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o’zaro bog’liqligini tasvirlash.....	42
2.2. Ingliz va o’zbek tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o’xhash tomonlari.....	52
2.3. Ingliz va o’zbek maqollarida mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi...	61
II bob bo’yicha xulosa	67
III bob. Ingliz va o’zbek maqollarining semantik xususiyatlari	69
3.1. Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi ingliz va o’zbek maqollarining semantik tahlili.....	69
3.2. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid bo’lgan o’zbek va ingliz tillaridagi maqollarning o’zaro o’xhash va farqli jihatlari	74
3.3. Inson xususiyatlarini ko’rsatuvchi hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o’zbek maqollarining tahlili.....	82

III bob bo'yicha xulosa.....	88
Xulosa.....	90
Illova.....	94
Adabiyotlar ro'yhati.....	100

KIRISH

Bugun O’zbekiston Respublikasi barcha rivojlangan davlatlar tan olgan va dunyo hamjamiyatida o’z o’rniga ega bo’lgan mustaqil davlatlardan biridir. Respublikamizda bo’layotgan jamiyatning barcha sohasidagi yangiliklar O’zbekistonimizning yanada gullab yashnashiga olib bormoqda. Yurtimizda ayniqsa ta’lim jarayoniga katta e’tibor berilayotgani yoshlar ta’lim-tarbiyasiga o’zining ijobjiy hissasini qo’shamoqda. Ayni vaqtida, O’zbekistonda chet tillariga, ayniqsa ingliz tiliga, bo’lgan qiziqish va talabning ortib borishi natijasida ta’lim tizimida chet tillarini o’qitish bo’yicha yangi qaror va farmonlarning ijrosi davlatimiz miqyosida olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi: “Қайд этиб ўтилсинки, мамлакатда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонунини ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш доирасида чет тилларга ўқитишининг комплекс тизими, яъни уйғун камол топган, ўқимишли, замонавий фикрловчи ёш авлодни шакллантиришга, республиканинг жаҳон ҳамжамиятига янада интеграциялашувига йўналтирилган тизим яратилди. Таълим тизимининг барча босқичларида чет тилларни узлуксиз ўрганишни ташкил қилиш, шунингдек, ўқитувчилар малакасини ошириш ҳамда замонавий ўқув-услубий материаллар билан таъминлаш янада такомиллаштирилишини тақозо этади.” (Каримов 2012, N-1875-сонли қарори).

Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, malakali chet tili o’qituvchilari davlatimiz uchun juda zarurdir. Shuning uchun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurtlari uchun yangi milliy dasturlar, darsliklar, uslubiy qo’lanmalar yaratildi va yaratilmoqda.

Qiyosiy tilshunoslik chet tili o'qitishning lingvovidaktik asosini tashkil etadi. Shu sababdan yurtimizda xorijiy tillarni ona tili bilan qiyoslab o'rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biridir.

Hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan qiyosiy tilshunoslikda va folklorshunoslikda maqollarni chuqurroq o'rganish bugungi kun qiyosiy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda.Uning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada paremiologiya, ya'ni maqollarni o'rganish tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji. Maqollar xalq o'g'zaki ijodining katta ahamiyat kasb etadigan janrlaridan biri bo'lib, bugungi kunda maqollarni qiyosiy tilshunoslikda chuqur o'rganish orqali tilshunoslikning yangi qirralari ochib berilyapti.Mavzuning eng muhim dolzarb jihatlaridan biri shundaki, bir tomonda xorijiy tillarga qiziqishning o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini har ikkla tilda qiyosiy o'rganish va ularni o'xhash va farqli tomonlarini umumlashtirishdir. Ayniqsa, o'zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o'rganish asnosida har ikkala xalqning madaniy va milliy odatlarini tilga qay daraja aks etganini ifodalab, xalqlarning mentalitetidagi o'zaro o'xhash va farqli tomonlarini isbotlab beradi. Mazkur masalani o'rganish uchun ingliz va o'zbek xalqining milliy madaniyatini ifodalovchi maqollarni qiyoslash, milliy mentalitet va uni ifodalovchi xususiyatlarini tahlil etish lozim.

Tadqiqot obyekti sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" kitobidagi 2000 ga yaqin ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar olindi.

Tadqiqot predmeti esa ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini kognitiv, lingovamadaniy va pragmatik jihatdan tadqiq etishdir.

Tadqiqot maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning grammatik, semantik, uslubiy yo'sinda ko'plab ilmiy ishlar qilingan bo'lishiga qaramay, ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlari qiyosiy, lingovamadaniy va pragmatik jihatdan hali to'la-to'kis yoritib berilmagan. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotda, ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini qiyosiy, lingovamadaniy va mavzuviy jihatdan tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish lozim deb topildi:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning nazariy masalalari, qonuniyatlarini va tamoyillarini aniqlab olish;
2. "Maqol" terminining folklorshunoslik va tilshunoslikda bog'liq holda qo'llanilish xususiyatlarini aniqlash;
3. Maqollarni xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqli va o'xshash jihatlarinikeltirish;
4. Ingliz va o'zbek maqollarining har ikki tilda qay darajada o'rganilganligini aniqlash;
5. O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash;
6. Ingliz va o'zbek xalq mentalitetini ifodalovchi maqollarning qiyosiy tahlillarini qilgan holda, o'zbek va ingliz tillaridagi o'xshashlik va farqli jihatlarni o'rganish;
7. Ingliz va o'zbek tillaridagi nutqda o'ta faol bo'lgan maqollarni tematik guruhlarga ajratib, ularning semantik tahlillarini olib borish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

1. Maqollar ham folklorshunoslikda ham tilshunoslikda o'rganiluvchi paremiologiya sohasining asosiy qatlami bo'lib, u ongning o'ziga xos kognitiv mikrostrukturasini tashkil etadi. O'z semantikasida madaniyatning bir bo'lagini aks ettiruvchi til birligi-lingvokulturema va axbarotni

saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi;

2. Ingliz va o'zbek maqollarida milliy mentalitetni ifodalovchi ayrim maqollar ingliz va o'zbek tillarida o'zining farqli jihatlarini ko'rsatadi. Ya'ni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim o'zbek va ingliz xalq maqollari ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi;
3. Ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha o'zbek va ingliz millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi;
4. Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi;
5. Ingliz maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ishda asosiy manba sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” kitobidan foydalanilgan. Unda ingliz, o'zbek va rus tillaridagi 6000 ga yaqin maqollarning ekvivalentlari keltirib o'tilgan bo'lib, ishda aynan shu manbadan olingan o'zbek va ingliz tillaridagi eng faol mavzudagi maqollarning lingvokulturologik va semantik tahlillari qilingan. Bundan tashqari o'zbek tilshunos olimlaridan To'ra Mirzayev, Asqar Musaqlarov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “O'zbek xalq maqollari” ning oxirgi nashridan o'zbek xalq maqollari keltirilgan. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning «Hikmatnoma”, “Ma'nolar xazinasi” kitoblaridan o'zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlarining ifodalananishi va K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov,

O.Safarov “O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi” kabi manbalardan o’zbek xalq maqollarining nazariy asoslari keltirib o’tilgan. Ushbu manbalardan foydalanilgan holda, maqollarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiatи va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo’lish manbalari va shakllanish xususiyatlari atroflicha ochib berilgan.

Ingliz olimlarining maqollarga doir yaratilgan eng mukammal kitoblari to’liq o’rganilib chiqilgan holda, asosan, Honek, R.ning ” A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom.” asaridan ingliz maqollarining nazariy asoslari, professor Mayderning “Proverbs: A Handbook “ kitobidan ingliz tilidagi eng mashxur maqollarning semantik tahlillaridan foydalanilgan. Arora, S.ning “The Perception of Proverbiality” asaridan ingliz maqollarida badiiy san’atlarning ishlatilish o’rinlari keltirilgan. Jon Simpson va Jennifer Spiklarning “The Oxford dictionary of Proverbs” ning 5- nashridan foydalanilgan.

Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning fan, ta’lim-tarbiya va madaniyat sohasidagi strategik yo’nalishlarini aniqlash, zamonaviy davlat ta’lim standartlarini tayyorlash va har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgan qonunlar, boshqaruv hamda me’yoriy hujjatlar tadqiqotimizning bosh metodologik asosini tashkil etadi.

Dissertatsiyada asosiy manba sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” kitobidan foydalanilgan. Unda ingliz, o’zbek va rus tillaridagi 6000 ga yaqin maqollarning ekvivalentlari keltirib o’tilgan bo’lib, ishda aynan shu manbadan olingan o’zbek va ingliz tillaridagi eng faol mavzudagi maqollarning lingvokulturologik va semantik tahlillari qilingan. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning «Hikmatnoma”, “Ma’nolar xazinasi” kitoblaridan o’zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlarining ifodalanishi va K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov “O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi” kabi manbalardan o’zbek xalq maqollarining nazariy asoslari keltirib o’tilgan. Ushbu manbalardan foydalanilgan holda, maqollarning leksik-

grammatik, leksik-semantik tabiatи va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo'lish manbalari va shakllanish xususiyatlari atroflicha ochib berilgan.

Ingliz olimlarining maqollarga doir yaratilgan eng mukammal kitoblari to'liq o'r ganilib chiqilgan holda, asosan, Honek R.ning "A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom." Asaridan ingliz maqollarining nazariy asoslari, professor Mayderning "Proverbs: A Handbook" kitobidan ingliz tilidagi eng mashxur maqollarning semantik tahlillaridan foydalanilgan. Arora S.ning "The Perception of Proverbiality" asaridan ingliz maqollarida badiiy san'atlarning ishlatilish o'rnlari keltirilgan.

Mazkur ilmiy ishda kontekstual tavsiflash, qiyosiy va statistik shuningdek semantik va lingvokulturologik tahlil **metodlari** qo'llanilgan. Shu bilan birga, konseptual tahlil va kross-madaniy tahlil metodlardan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotimiz madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunsolik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariya hamda metodlarga asoslandi. Tadqiqot natijalari umumiyligi tilshunoslik, til va jamiyat, til va tafakkurning o'zaro ta'siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o'rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot uchun to'plangan til materiallari va ularning tahlilidan umumiyligi tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik kurslari bo'yicha ma'ruzalar o'qitishda, filologiya fakultetlari talabalari uchun esa o'quv qo'llanmalari, darsliklar, lug'atlar tuzish uchun ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- ishda ilk bor ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik jihatlari tematik guruhlarga bo'lingan holda chuqr qiyosiy tahlil etildi;

- ingliz va o’zbek tillaridagi hali uncha ko’p tadqiq etilmagan, ya’ni diniy mavzudagi maqollarning qiyosiy tahlili qilindi;
- o’zbek va ingliz tillaridagi mehnatsevarlik, yaxshilik va yomonlik va hayvon obrazlari qatnashgan bir qancha maqollarning o’zbek va ingliz tillaridagi o’xhash va farqli jihatlari atroflicha tahlil qilindi;
- tadqiqotda har ikki tildagi mavjud ayrim maqollarning ijtimoiy-madaniy, kognitiv-psixologik va fiziologik xususiyatlarini aniqlash yordamida ularning shakllanish asoslari ko’rsatildi.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya 90 betdan iborat bo’lib, kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati va ilovadan iborat.

Dissertatsiyaning kirish qismida ishning dolzarbligi, metodologik asosi va tadqiq usullari, muammoning o’rganilish darajasi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, tadqiqot manbalari shuningdek, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida qisqacha, aniq va mukammal ma’lumot beriladi.

Ish uch bobdan iborat bo’lib, har bob 3 qismni o’z ichiga oladi. Har bobdan so’ng xulosalar keltirilgan va umumiylashtirilgan xulosa ish so’nggida berilgan.

Barcha foydalanilgan manbalar adabiyotlar ro’yhatida keltirilgan.

BIRINCHI BOB

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARI HAQIDA NAZARIY QARASHLAR.

1.1. Maqollar va ularning umuminsoniy xususiyatlari.

Millatni o'zligini ko'rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Xalq o'g'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'r ganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Folkloarning eng muhim janrlaridan biri bo'lган maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'r ganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy ishimizning ushbu bobida o'zbek va ingliz maqollarining umuminsoniy xususiyatlari va ularning xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga nisbatan o'xhash va farqli jihatlarini ko'rib chiqishga qaratilgan. Shuningdek o'zbek va ingliz xalq maqollarining tilshunoslikda o'r ganilish jihatlarini keltirib, bu soha bo'yicha faoliyat ko'rsatgan olimlarning nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folkloarning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lган bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisolı bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi to'la namoyon bo'lganidir. [61;3]

Shu sababli maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda foydalanibgina qolmay balki badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda ham doimiy ravishda qo'llanilib kelingan va bugungi kunda ham juda faoldir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-

odob qoidalari deb atash mumkin. Zero,maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy,ma`naviy-madaniy,axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Ular insonlarning turli sohalardagi faoliyatlarini jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining hosilasi, barqaror va o'zgarmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

Xalq paremik ijodiyoti o'ziga xos qonuniyatlar va rivojlanish tamoyillariga ega. Uning bu xususiyatlarini folklorshunoslikning paremiologiya sohasi o'rganadi. Maqollar ustida izlanishlar olib borar ekanmiz, shu o'rinda paremiologiya sohasiga murojaat qilishimiz shart. **Paremia** grekcha so'z bo'lib, **hikmat**, **naql**, **hikmatomuz obrazli ibora** ma'nolarini anglatadi. Xalq parameki ijodiyoti namunalarini to'plash va yozib olish hamda kitobat qilish bilan esa **paremiografiya** shug'ullanadi.

Folklorda maqol janri hikmatga yo'g'rilganligi, g'oyat ixcham, lo'nda va obrazli ifodalishi bilan xalq paremik ijodining bir qismini tashkil etadi. Biroq maqol janri bugungi kungacha alohida adabiy tur sifatida e'tirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasini tarkibida mavhum holda kichik tur tarzida ko'rib kelinmoqda.

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqr mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi **arabcha – qavlun –gapirmoq, aytmoq** so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi. [55;91]

Demak, xalq maqollari ommaning muayyan voqeasiga, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o'zida mukammal tarzda mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lган ifoda va iboralardan iboratdir.

O'zbek xalq maqollari ko'pincha **maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi** atamalari bilan el orasida mashxur. Ko'pincha ilmiy taomilda maqol atamasi iste'moldadir.

Maqollar o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lмаган xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko'p uchraydi. Chunki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko'p o'xshashliklar, umumiyliliklar mavjud. [55;91]

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “**proverb**” so'zi orqali ifodalanadi. Ba'zan ko'plab adabiyotlarda : **adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms** so'zlari orqali ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin. O'zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham ingliz folkloarning eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ko'pincha tuzilishi, folklorda o'rganilishi va yana boshqa jihatlari bilan o'zbek maqollariga o'xshash holda umumiy jihatlarni ko'rsatadi.

Xalq maqollariga murojaat etganda, ulardagi tarixiylikni hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda nutqimizda ishlatilayotgan maqollarning ko'pchiligi o'tmishda yaratilganligi bilan xalq psixologiyasi, dunyoqarashidagi cheklanganliklar va ziddiyatlar aniq ifodasini topgan. Binobarin, xalq maqollarini to'plash, ularning tabiatdagi turli davrlarga xos qatlamlarini izchil sinfiylik nazaridan o'rganish lozim. Masalan o'zbek xalq maqollaridan biri “**Boy boyga boqar, suv soyga oqar**” maqolini jamiyatning qaysi davrida va qanday sinf vakillari tomonidan aytilganligini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol

mehnatkash xalqning nutqida qo'llanilgan bo'lsa, u shu sinf manfaatlariga xizmat qiladi yoki aksincha.Yoki ingliz maqollaridan “**A fool's bolt is soon shot**” maqolini ko'rib chiqsak. Maqolning tarjimasi- **ahmoqning kamon o'qi tezda otilar**.O'zbekcha muqobil varianti “**Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo'ysang, qo'li bilan ko'chirib tashlaydi**”. Agar tarjimadan kelib chiqadigan bo'lsak maqolni uzoq o'tmishda yaratilganligiga shubhamiz yo'q, albatta. Chunki unda ishlatilgan “**bolt**” ya'ni “**kamon o'qi**” o'tmishda, urush davrlarida yaratilgani sezilib turadi. Demak, maqollardagi konkret sinfiy funksiya ularning nutqda qo'llanish o'rniga qarab belgilanadi. Ammo maqollar qaysi davrda yaratilishidan qat'iy nazar, ular yana nutqqa qaytib faollahishi mumkin. Biz bu fikrimiz bilan “**Boy boyga boqar, suv soyga oqar**” yoki “**A fool's bolt is soon shot**” maqollarini bugungi kunda nutqimizda faol emas demoqchimasmiz. Biz bu holatda maqollarning kelib chiqishi yoki yaratilishi ma'lum bir davrga, holatga bog'liq bo'lishini aytmoqchimiz xolos.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajadagi o'zgarishlar – torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bevosita bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi.[55;93]

Demak, maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy,siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rghanishda asosiy vazifani o'taydi. Haqiqatdan ham maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini, etiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratini, orzu va intilishlarini obyektiv baholaydi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “**Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman**” degan edi va bu yuqorida keltirgan barcha fikrlarimizni tasdiqlay oladi.

Maqollarning yana bir muhim jihatlaridan biri ulardagi **ibratlilik**. Maqollarda har doim ibratlilik fikr aytiladi. Lekin har qanday ibratlilik fikr maqol bo'lavermaganidek, ibratlilik fikrlarning maqollarga aylanishi uchun bir qancha shartlar mavjud. Ular quyidagicha:

- Maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishidadir. Hayotiy tajribada sinalgan har qanday fikr kishini ishontira oladi;
- Maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxsgagina emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishida;
- Sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi shartdir.[55;93]

Aynan shu sabablar oqibatida xalq maqollari juda ham sekinlik bilan yaratilish va unutilish xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy strukturasi, bu strukturaning barqarorlik yoki beqarorlik darajasi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Maqollardagi **pand-nasihat xarakteri** ularni yanada jonli va kuchli ta'sirchanligini oshiradi. Masalan: Inglizcha "***A bad excuse is better than none***" o'zbek tiliga –xohlamasdan kechirim so'rash , umuman so'ramagandan yaxshi deb tarjima qilinadi. O'zbekcha muqobil variant sifatida "***Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan***" maqolini keltiramiz. Ko'rinish turganidek, ushbu maqollar pand-nasihat mazmunidagi ma'noni beradi. Ya'ni, shaxsga har doim shirin so'zli va yaxshi kalomli bo'lish kerakligini anglatadi.Maqolning har ikki tildagi variantlari ham bir xil ma'noni beradi.

Maqollarni o'rganish jarayonida uning tuzulishi, qanday ko'rinishdagi sintaktik butunliklar orqali tashkil topgani muhim omildir. Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi. Aynan shu tomonlari bilan o'zbek va ingliz xalq maqollari juda o'xshashdir. Quyidagi maqollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

- ✓ *The absent is always in the wrong- O'zi yo'qning — ko'zi yo'q.*
- ✓ *There is no accounting for tastes -Har kim suygan oshini ichadi.*
- ✓ *Actions speak louder than words-Gap bilguncha — ish bil.*

- ✓ *Advise none to marry or go to war-Har kimning niyati o'zining yo'l doshi.*

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

- ✓ *After dinner sit a while,*
After supper walk a mile.
- ✓ *Qorning ochmasdan ovqat yegin,*
Qorning to'ymasdan qo'l artgin.
- ✓ *Art is long, life is short.*
- ✓ *Ilmsiz — bir yashar,*
Ilmli — ming yashar.

O'zbek tilida ba'zan 4 komponentli maqollar ham uchrab turadi. Biroq ingliz maqollari orasida 4 komponentli maqollar kam uchraydi.

Zamon seni o'qitar,
Tayoq bilan so'kitar.
Sabog'ingni bilmasang,
Do'konda bo'z to'qitar.[56;5]

Bir qismli maqollarga nisbatan ko'p qismli maqollar nisbatan tez o'zgarishga moyilroqdir. Sababi ba'zi holatlarda maqol aytuvchining unda ifodalanayotgan ma`noni to'laligicha tushunib yetmasligi yoki eshitganini eslay olmasligi natijasida o'zicha qo'shimcha so'zlar yoki izohlar qo'shishi tufayli maqolning mazmuniga yoki tuzilishiga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin. Bunday vaziyatda o'sha maqolda asosiy fikrni tashuvchi so'zlardan birining tushirib qoldirilishi mumkin. Binobarin, maqollarni aytish va tinglash ham alohida e'tibor va ma'suliyatni taqozo etadi. Aks holda beparvolik tufayli maqolning asl ma'nosiga putur yetkazilib, kelajak avlodga noto'g'ri talqinda o'tib qolishi va asl ma'nosiga nisbatan zid ma'noda qo'llanilishi mumkin.

Maqollar shakliga ko'ra, **nasriy** hamda **she'riy** tuzulishga ega bo'ladi.

All asses wag their ears- Ahmoq aql o'rgatar.

Barking dogs seldom bite- Qopag'on it tishini ko'rsatmas

kabi maqollar nasriy tuzilishdagi maqollar hisoblanadi.

O'zbek xalq maqollari ichida she'riy shakldagi maqollar ingliz maqollariga nisbatan ko'p uchraydi. She'riy shakldagi maqollarda o'ziga xos **vazn**, **qofiya** va **ohangdorlik** mavjud.

Oltovlon ola bo'lsa,

Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa,

Tepadagin endirar. [55;97]

She'riy tuzulishdagi maqollarda ritmik-sintaktik parallelizmlar, alliteratsiya, qofiya va boshqa ko'pgina poetik vositalar ifodalanadigan ibratli fikrni jarangdor, ohangdor, libos bilan bezantirsa, ayrim hollarda oddiy so'zlarning takrorlari yoki radiflar ham qofiya vazifasini o'taydi.

Masalan:

Yomonga bo'ldim yo'ldosh,

Ishimga bo'ljadi qo'ldosh.

Yaxshiga bo'ldim yo'ldosh,

Ishimga bo'ldi qo'ldosh.[55,97]

Bu hodisa ko'proq o'zbek maqollari uchun xosdir. Asosan o'zbek maqollarining katta ko'pchiligida alliteratsiya, qofiya kabi poetik vositalarning ishtiroki ko'p kuzatiladi.

1.1.1. Maqollarning xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga nisbatan o'xshash va farqli jihatlari

Maqollar insoniyatning turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalaydigan qisqa, ko'pincha she'riy formadagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralar bo'lib, o'ta ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodidagi boshqa janrlardan farq qiladi.

A.M.Gor'kiy xalq maqollarining roliga yuksak baho bergan edi. «*Eng ulug` donolik so`zining soddaligidir*»-deb yozadi u. *Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi.* [16; 114] Bu yerda olim maqol va qo'shiqlarning shakliy ko'rinishlariga, sermazmunligiga baho berib, ularni o'zaro tenglashtiryapti. Lekin biz bu bilan qo'shiq va maqol xuddi bir xil xususiyatga ega janr deb hisoblamasligimiz kerak.

Qo'shiq, yor-yor, o'lan kabi lirik janrlarda voqelik shaxsning kechinmalari fonida ifodalansa, xalq maqollarida ana shu kechinmalar haqidagi xulosalar lo'nda ifodalanadi. Demak, lirik janrlarda kechinmadan hukmga qarab, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab intilish yetakchilik qiladi. Epik janrlar bo'lmish xalq dostonlari, ertaklari, afsona va rivoyatlari, latifalar, rang- barang obrazlarning xattiharakati, kechinmalari orqali aks ettirilsa, maqollar voqelikning xulosasini hukmlar orqali aks ettiradi. Demak, maqolda voqealarning kechishi emas,balki ulardag'i xulosa va hukm ifodalanadi. Binobarin, epik janrlarda yo'nalish harakat va holatdan hukmga tomon yo'nalgan bo'lsa, maqollarda hukmdan harakat va holat tomon yo'nalganlik boshchilik qiladi.[55;91]

Yuqorida keltirilgan ikki xususiyatdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, hajman ixcham bo'lган maqollarda olam-olam kechinma bayoni ulkan dostonlarga jo bo'lувчи voqealarni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, har bir maqolning mazmunidagi real voqelikdagi faktlar orqali ulkan hajmdagi asarlar yaratilishi mumkin.

Xalq og'zaki ijodi janrlari sirasida hajmi, tashqi shakliy xossalari hamda voqelikni aks ettirish tarzi jihatidan maqollarga yaqin turuvchi matal, topishmoq kabi janrlar mavjud bo'lib,bu janrlar orasidagi o'xshash jihatlarning ko'pligi tufayli,ular orasidagi farqlarni anglash biroz muammo tug'dirishi mumkin.[55;92] Bugungi kunda barcha xalqlarning folklorida bu muammolarga duch kelishimiz mumkin. Xuddi o'zbek tilidagi singari ingliz tilidagi maqollarda ham shu masalaga duch kelamiz. Ya'ni, ingliz tilida **maqol** “proverb”, **matal** “saying”, va **topishmoq** “riddle” lar bir – biriga yaqin xalq og'zaki janrlari hisoblanadi. O'zbek xalq maqollar singari ingliz xalq maqollari ham matal va topishmoqlardan quyidagi xususiyatlar orqali keskin farqlanib turadi. Bular quyidagicha:

1.Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi. Matalda esa tugal fikr ifodalanmaydi.Topishmoq shaklan maqollarga yaqin tursa ham, biroq voqelikni aks ettirish tarzi, asosan fikrni jumboqli shaklda yashirib ifodalash bilan maqollardan keskin farqlanib turadi. [55;92]

Bir qarashda maqol va topishmoqlarning yaqqol farqi sezilib turadi. Ammo maqol va matal o'rtasidagi farqni darrov anglash biroz qiyinroq.

Xalq og'zaki ijodida maqol bilan bir qatorda matallar ham qo'laniadi. Bu ikki terminning farqini bilish kerak.Matal maqollardan farq qiladi. Matal ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turidir. Matal o'z ma'nosini boshqa ma'noga ko'chirgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi. [55;92]

Masalan,**Aql -ko'rga, ko'z soqovga –til** maqolini tahlil qiladigan bo'lsak, ko'r odam aqli bo'lsa yo'lini topadi ya'ni dono kishi har doim o'z yo'lini topa oladi kabi hukm surilgan. Lekin “**Temirni qizig'ida bos** “ deyilganda aniq va tugal hukm yo'q. Bu matal bo'lib, ko'chma ma'noda, ya'ni ishni o'z vaqtida bajarish zarur ma'nosida kelayapti. U atigi obrazli ifoda sifatida qotib qolgan.

Yoki “**Tepdim- terakka chiqdim**” topishmog'ini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda “**uzangi**” predmeti jumboqlangan.Topishmoqda hech qanday ibratlilik yoki hukm

ifodalangani yo'q. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, topishmoqlar va maqollar o'rtasida shakliy yaqinlikdan boshqa hech qanday yaqinlik yo'q. Ingliz xalq maqollarida ham huddi shunday holatni kuzatish mumkin.

Masalan, “**There is no place like home**” maqolida o’z tug’ulib o’sgan uying oltindan ham afzal, qadrli ekanligi ifodalanadi. Maqolda tugal hukm va aniq xulosa mavjud.

Ingliz matallaridan biri “**Build one’s house upon the sand**” ni tahlil qilsak “**qum ustiga uy qurmoq**” ma’nosini beradi. Agar uni ko’chma ma’noda tahlil qiladigan bo’lsak, “**birovning ko’nglini puch yong’oq bilan to’lg’azmoq**” ma’nosini anglatadi. Ko’rib turganingizdek, matallar maqollar kabi tugal hukmni ifodalamaydi.

Yoki topishmoqlardan “**It’s running night and day, but it never runs away**” topishmog’ida kecha kunduz tinmay ishlaydigan narsa ya’ni “**soat**” so’ralyapti. Topishmoqda soatni tinmay ishlashi ifodalangan va hech qanday hukm yoki xulosa ko’rsatilmagan.

2.Maqollarda muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham maqolda voqelik yo izchil ijobiy, yo keskin salbiy jihatdan baholanadi. Fikr keskin qutbiylikda ifodalanganligi uchun ham har bir maqolda ikki mantiqiy markaz mavjud. Bu markazlar mazmunan bir- birlariga yo o’xshatiladi, yo taqqoslanadi, yoki butunlay zid qo’yiladi.[55;92]

Masalan, “**Ko’p gapirma, ko’p ishla**” inglizcha “**Speak less but do more**” maqolida zid qo’yish orqali yaxshi va yomon xislatlar ifodalanyapti.

3.Maqollar o’z va ko’chma ma’nolarda qo’llana olish imkoniga ega bo’lsa, matallar faqat ko’chma ma’noda qo’llanadilar.[55;92]

Turmushda ro‘y bergen voqeа-hodisalar natijasida paydo bo‘lgan vaziyatdan kelib chiqqan holda biron shaxs biron maqolni o’z fikrini tasdiqlash maqsadida keltirishi mumkin. Ammo mazkur maqolning o’z yoki ko’chma ma’noda qo’llanganligini ro‘y berilayotgan voqeani aniq ko’z oldimizga keltirish

orqali ifodalaymiz.. Masalan, «**Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda**» maqolini ko’rib chiqsak. Agar dehqon qaysi bir sabab bilan kuzda yer haydamagan bo‘lsa-yu, bahorda qayta-qayta ekin maydonini haydagani bilan yaxshi hosil olmasa, yuqorida aytilgan maqol o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘ladi. Ammo biron shaxs tomonidan biron tadbirning amalga oshirilishi kechiktirilsa va keyingi harakatlar natija bermasa «**Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda**» maqoli misol sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu holatda u ko‘chma ma’noni anglatadi. Lekin ko’pincha maqollar mazmuniga ko‘ra ko‘chma ma’noda ko‘proq qo‘llaniladi. «**Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas**», «**Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas**», «**Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirma**», «**Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin**» kabi hikmatli so‘zlar ko‘pincha ko‘chma ma’nolarda ishlatiladi. Ingliz tilidagi maqollarni o‘rganish, bu janr namunalari mazmunan deyarli o‘zbek tilidagi maqollar bilan bir xil ekanligini ko’rsatadi. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o‘zlashtirganligi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o‘xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va, umuman, hayotning ko‘p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan ma’qulroq bo‘ladi. Masalan:

O‘zbekcha “*It hurar karvon o’tar*”, inglizcha “*The dogs bark, but caravan goes on*” yoki “*When the cat is away, the mice will play*” inglizcha “*Mushuk yo’q bo‘lsa sichqon bayram qiladi*” yoki boshqa ma’nodoshi “*Otning o’limi –itning bayrami*” misollarini keltirishimiz mumkin.

Matallar ham shakl va mazmun jihatdan maqollarga juda o‘xhash janr hisoblanadi. Matallarning matni, hajmi, badiyiligi jihatdan maqollarga yaqinligini juda ko‘p olimlar tomonidan tasdiqlangan. Hatto ko‘pchilik adabiyotlarda matal atamasi maqol bilan almashgan holda qo‘llanilishi ham ko‘zga tashlanadi. Odatda matallar so‘zlovchi nutqining ta’sirchanligini oshiradi, shaklan go‘zallashtiradi. Biroq maqol bilan matalni janr jihatdan o‘ziga xos shunday xususiyatlari borki, ularni hamisha bir-biridan farqlagan holda tasavvur qilish mumkin. Yuqorida

ta'kidlab o'tganimizdek, maqollarda hayotda ro'y bergan bir voqeaga umumlashtirilgan holda hukm chiqariladi. Bu hukm tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiradi. Ayni paytda, xalq maqollarini mazmunan tugal fikrga ega bo'ladi va ular har doim alohida qo'llanilsa ham ma'no anglataveradi. Matallar esa so'zlovchi nutqi tarkibining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi va matallarni alohida qo'llash mumkin bo'lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal tushunchasini bir-biri bilan chalkashtirish mavjud. Hatto «O'zbekiston Qomusi»da ham, bizningcha, «maqol» maqolasiga matal, «matal» maqolasiga maqol misol sifatida keltirilgan. Aytib o'tish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o'rtasida farq borligini ko'rsatmoqda. Jumladan, maqol alohida qo'llanganda tugal fikrni bildiradi va hayotda uchrab turadigan o'xshash lavhani izohlaydi. Matal alohida qo'llanganda, mustaqil ma'no ifodalamaydi va notiq fikrining badiyilagini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu o'rinda bir misolni eslash maqsadga muvofiqdir. Xalqimiz orasida **«Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar»** degan maqol bor. Agar shu maqoldagi fikriy qismlarni ajratgan holda quyidagi shaklga keltirsak, matalga ega bo'lamiz: **«Ahmad ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi»** bu gapda **«ilon inidan chiqadigan»** so'z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki maqol va matal, aslini olganda, xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarini ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat tarixiy jarayon natijasida ularning biri maqol bo'lib shakllangan, ikkinchisi matal sifatida yashay boshlagan.[71;35]

Shunday qilib, maqol va matal aslini olganda xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar va ularning biri tarixan maqol bo'lib shakllanishga ulgurgan, ikkinchisi esa matal sifatida yashayvergan. Demak, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin turadi, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi.

Maqollar og'zaki badiiy ijod va falsafa oralig'ida turgan hodisa bo'lib, ularda aytilgan hukmni hech kim inkor etolmaydi. Chunki bunday hukm, avvalo, asrlar davomida turmush tajribasida qayta-qayta sinalib tasdiqlangan, so'ngra esa, xuddi shu xususiyati tufayli tarix hikmatiga aylanib tashviqiy mohiyat kasb etgan. Shuning uchun maqollardagi fikrlar tinglovchilar tomonidan e'tirozsiz, hech bir qarshiliksiz va izohsiz qabul qilinishi odatiy holga aylanga. Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli bo'lgani uchun bahslashishga o'rinn qolmaydi. Shu sababli maqollardan nutqning istalgan joyida, istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, matal yoki topishmoq umuman folklorning boshqa janrlariga nisbatan har doim jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin bazi hollarda maqollar **kinoya, piching, istehzo, zaharxanda** ma'nolarida ham ishlatilishi mumkin. Masalan: "**Long hair and short wit**" -**Sochi uzun –aqli kalta** ya'ni juda kelishgan biroq ongsiz, nodon odamlarga qarata aytilgan bo'lsa, "**Kings have long hands**" – **Podshoning kuragi uzun-hamma** narsaga qo'li yetadigan, imkoniyati cheklanmagan va shu orqali ba'zida me'yor chizig'idan o'tkazib yuboradigan kishilarga piching qilib aytiladi.

Ko'rib chiqqanimizdek, o'zbek va ingliz xalq maqollari juda ko'p xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan keskin farqlanib tursalar ham, ko'pchilikning ijod mahsuli sifatida, anonim yaratilishi, o'g'zaki holda jonli yashashi, keng variantlashishi va o'ta ommaviyligi bilan xalq og'zaki ijodining barcha janrlari bilan umumiylit kasb etadi. Va shu o'rinda ularning bir- biridan farqli jihatlarini o'rganish ham maqollarning boshqa janrlardan alohida xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa maqollarning xalq paremik ijodida o'ziga xos va alohida tadqiq qilinishi kerak bo'lган janr sifatida gavdalantiradi.

1.2. Maqollarining o'zbek folklorshunosligida o'rganilishi.

O'zbek xalq maqollarining o'zbek folklorida o'rganilish tarixi juda uzoq va qiziqarli. Hozirda maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda ularning o'rganilish tarixiga qiziqmay ilojimiz yo'q. Maqollar bugungi kunga qadar barcha xalqlarning folklorchilari tomonidan yuksak istak bilan o'rganilgan va bugungi kunda ham bu jarayon ustida chuqur izlanishlar olib borilyapti. O'zbek maqollari haqida yangiliklar qilish, ularning hali o'rganilmagan sohalarini qidirish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda folkorda, ayniqsa, maqollar ustida izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar uchun o'zbek maqollarini shu kungacha o'rganilish tarixini chuqur bilish ishimizning poydevorini tashkil qiladi. Shu sababdan ishimizning ushbu qismida o'zbek maqollarining o'zbek folklorida o'rganilish tarixi va bugungi kundagi izlanishlar haqida to'xtalmoqchimiz.

Xalq o'zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini har doim maqollar orqali ifodalagan. O'zbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Ayni vaqtida ular yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodining mahsulidir. Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folklorshunoslar tomonidan ko'p marotaba o'rganilgan.

Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'birk joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devoni lug'otit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda.[61;3]

Bugungi kunimizdan deyarli ming yil avval Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida ko'plab maqollardan namunalar keltirgan va xalqimiz ijodida maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini isbotlab bergen.O'zbek maqollarining o'rganilish tarixi haqida so'z ochar ekanmiz, shubxasiz Mahmud Koshg'ariyning xizmatlarini alohida e'tirof etish joizdir. Mahmud Koshg'ariy o'zining «**Devonu lug'otit turk**» asarida kitobni«hikmatli so'zlar, saj'lar, **maqollar**, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar» bilan bezaganligini aytadi.[59;33]

Darhaqiqat, «Devonu lug'otit turk» da berilgan maqollar bilan turkiy xalqlarning madaniy merosiga voris sifatida o'zbek xalqi faxrlansa arziydi. Ana endi Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning lug'ati misolida keltirgan 400 ga yaqin maqolga va 13 mingdan ortiq bu janr namunalarini ko'rib chiqsak. Ma'lum bo'ladiki, bunchalik soni ko'p va badiiy mukammal xalq hikmatli so'zlarini ijod qilish faqat dono, zukko, har bir hayot voqeasini mulohaza laboratoriyasidan o'tkaza olgan ajdodlarimizgagina nasib etishi mumkin. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro'y bergen va bu voqea o'ta sinchkov va dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab bo'lgan.

Mahmud Qoshg'ariy «**Devonu lug'otit turk**» da «**savlashmoq**» so'zini keltirib o'tgan. Bu “**otalar so'zini eslamoq**” ma'nosini anglatishi aytildi. Demak shunday tahmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «**sav**» deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «**masal**» tarzida berilgan.Navoiy o'z asarlarining birida «**masaldurkim — uyqu o'limdir**» deb aytadi. «**Masal**» atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi ko'p uchray boshladi.Keyinchalik XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llanildi.[59;34]

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkolarining e'tiborida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy,

Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozzi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Badiiy asarlarda maqollardan keng darajada foydalanish hamisha asar tilini boyitishga yordam bergan.

Xalq maqollari asrlar davomida o'zining shakl va mazmun jihatdan nodir xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida buyuk va taniqli adiblar e'tiborini jalb qilib keldi. Yusuf Xos Hojibdan tortib Muqimiygacha, Alisher Navoiydan tortib Oybekgacha xalq maqollaridan samarali foydalanganlar. Jumladan:

- Alisher Navoiy lirikasida «Chiqmag 'on jong'a umid», «It uyub qoldiyu, ko'chdi karvon», «Men firoqdin desam, ul der Iroqdin»;
- Bobur ijodida: «Bo'lib turur ikki ko'zim yo'lida to'rt», «Men edim saningdek, sen bo'lg'oysen maningdek»;
- Abdulla Qahhor ijodida «Otning o'limi, itning bayrami», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»;
- «Alpomish» dostonida «Sulton suyagini xo'rillas», «Elakka borgan xotinning ellik og'iz gapi bor» kabi maqollar ko'plab uchraydi. [59,40]

Folklorshunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi ***folklorizm*** deb ataladi. Bu holat ijodkorning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati ijobiy ekanini ko'rsatadi. Demak, xalqimiz yaratgan maqollar mazmun jihatdan chuqur bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Ma'lum bo'ladiki, xalqimiz yaratgan maqollar faqat mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib so'z san'ati namunalari sifatida ishlatilishi mumkin.

Asrlar davomida yaratilgan maqollarni to'plab, ma'lum bir majmua sifatida ishslash talabi vujudga keldi. Agar olimlar tomonidan maqollar to'planib, ma'lum bir majmua holiga kelmaganida edi, ushbu mavzu bo'yicha qilayotgan ishimizning

asosi ham bo'limgan bo'lar edi. O'zbek xalq maqollarini to'plab, ma'lum bir to'plam sifatida ishlash ishlari qadim zamonlardan boshlangan.

Olimlar qadimgi shohlardan Abbas Safoviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma'lumot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tamiz. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq o'zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.[61;3]

O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N. Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924), Sh. Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O'.Azimov, O'. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi.[ko'k kitob 3] Buning natijasida bugungi kunda ko'plab ilmiy ishlarga asos sifatida ishlatilayotgan to'plamlar yaratildi desak ham yanglishmaymiz.

Tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R.

Rasulov kabi olimlaming to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y. Chernyavskiy, V. Ro'zimatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida nashrdan chiqdi. Ayniqsa H. Karomatov, K. Karomatova muallifligida nashrdan chiqqan o'zbek, ingliz va rus maqollarining to'plami maqollarni qiyosiy jihatdan o'rganayotgan olimlar uchun juda katta yangilik bo'ldi. "Proverbs, Maqollar, Пословицы" deb nomlangan ushbu kitobda o'zbek, rus, ingliz maqollarining muqobil ekvivalentlari va o'zbekcha ma'nolari bilan keltirilgan.

O'tgan asrda o'nlab maqollar to'plami e'lon qilindi. «O'zbekcha otalar so'zi» (1924), «Maqollar va hikmatli so'zlar» (1939), «Otalar so'zi — aqlning ko'zi» (1947), «O'zbek xalq maqollari» (1978), «O'zbek xalq maqollari» (2jildlik, 1987—1988) kabilar shular jumlasidandir. Ularni to'plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzaev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R. Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo'shdilar. [59;34]

Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564, Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos. O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987—1988-yillarda ikki jilda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. [61;3]

Keyinchalik To'ra Mirzayev, Asqar Musoqulov va Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005- yilda ilgarigi to'plamlarga nisbatan ancha mukammalroq formada ishlab chiqildi. Kitobda 70 dan ziyod mavzudagi maqollar alfabit tartibi bo'yicha tuzib chiqilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 80-yillarning oxirlarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu misol ham o'zbek xalqining naqadar ulkan va beba ho madaniy merosga ega ekanligini ko'rsatadi. Hech ikkilanmasdan alohida aytib o'tish lozimki, bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdan-kam xalqlar ega bo'lishi mumkin. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, biron ta shoir tabiat inson qattiq ehtirosiga berilgan paytida o'nlab qo'shiq to'qib tashlashi mumkin. Ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalq qalbidan joy olishi uchun o'nlab yoki yuzlab yillar kerak bo'ladi.

Maqollarning o'rganilish tarixi va toplash jarayonlari haqida gap ketganda ularni tasnifi haqida ham fikr yuritishimiz kerak. O'zbek folklorshunos olimlari tomonidan maqollarni tasnif qilishning asosan quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- **Alifbe tartibida.** Unga ko'ra mavjud material maqol to'plamida alfavit tartibiga solinadi. Uning afzalligi shundaki, foydalanuvchi to'plamdan maqolni tezroq topa olishi mumkin. Ammo kamchiligi unda maqollarning mavzu jihatdan berilmaganligi tufayli foydalanuvchiga ko'proq qiyinchilik tug'dirishi mumkin.
- **Mavzular tartibida.** Tasnifning bu turi oldingisidan ancha murakkab va mukammalligi bilan ajralib turadi. Chunki bu turda material muayyan mavzu guruhlariga ajratiladi, har bir mavzudagi material esa o'z ichida alfavit tartibi bo'yicha beriladi. Ushbu tartib bo'yicha tuzilgan maqol to'plamlari foydalanish jihatidan qulayligi, eng muhimi, muayyan xalq maqollari fondining mavzu doirasini ko'rsatib berishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi.

- **To'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga ko'ra.** Maqollarning semantik tabiatidagi davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi: oldin o'z ma'nosida qo'llanilgan maqollar keyinchalik faqat ko'chma ma'no kasb etishi mumkin. Shunga ko'ra maqollar 2 xil:
 - a) o'z ma'nosida qo'llanuvchi;**
 - b) o'z va ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi;**
 - e) faqat ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi.**

Umuman, bu turdag'i tasnifga ko'ra davrlar o'tishi bilan xalq maqollarini tabiatida yuz bergan semantik o'zgarishlarni aniqlashga, binobarin har bir maqolning qay darajada davr talablariga javob bera olishini belgilashga imkon beradi.

- **Qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko'ra.** Maqollar-juda qadimiy, ayni vaqtida hamisha zamonaviy janr. Uning qadimiyligi xalq tarixi qadar uzoq. Xalq maqollarida muayyan xalq boshidan kechirgan turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'z aksini topadi. Shunga ko'ra maqollarni qay davrda yaratilganini bilib olish mumkin.
- **Tuzulishiga ko'ra.** Bunday tasnifda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir nechta guruhlarga ajratiladi. Yani:
 - 1. 1 komponentli**
 - 2. 2 komponentli**
 - 3. 4 komponentli va undan ortiq holatda ham uchrashi mumkin.**

O'zbek maqollari ilk bora shunday ko'rinishda tasnif qilingan. Biroq hozirda maqollarning yana bir tasnif turi ya'ni:

- **Sinonimlik yoki antonimlik mohiyatiga ko'ra** ham tasnif qilinmoqda.

Bunday tasnif turida maqollar asosan o'z ichida sinonim yoki antonim holatida va alfavit tartibida beriladi.

Hozircha o'zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko'ra tasnif qilish ananasiga ikki jildlik “O'zbek xalq maqolları” (1987) va ko'p jildlik «O'zbek xalq ijodi» ruknida «O'zbek xalq maqolları» (1989) va «O'zbek xalq maqolları» (2003)

hamda etimologiyasiga ko'ra Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning «Hikmatnoma» (1990) va “Ma'nolar xazinasi” (2003) “O'zbek xalq maqollari” (2005) to'plamlarini tuzishda amal qilingan.

O'zbek xalq maqollarida badiiy san'atlarning juda ko'p ishtiroki kuzatiladi. Shu o'rinda o'zbek olimlaridan K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, va O. Safarovlar maqollarda eng ko'p uchraydigan badiiy vositalarni quyidagicha ifodalaydi.

1.Tazod (zid qo'yish). Olimlarning fikricha o'zbek maqollarida eng ko'p uchraydigan vositalardan biri tazod (zid qo'yish) hisoblanadi. Buning bosh sabablaridan biri, unda maqolda aks etgan voqeanning tabiatidagi ziddiyatni aks ettirish orqali tomonlardan biri yo tasdiqlanadi, yo inkor etiladi.Odatda maqollardagi tazod usulida voqelikning turli-tuman xossalari: hajmi, rangi, bo'yi, uzunligi, masofa kabi jihatlar qarama –qarshi qo'yiladi.

Masalan: ***Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.***

Xullas, tazod san'ati xalq maqollarida keng qo'llanilganligi sababli maqollarni tematik tasnif etishda har bir obrazning ijobiy v salbiy jihatlarini teng hisobga oladi. Masalan: Yaxshilik va yomonlik, do'stlik va dushmanlik,mehnatsevarlik va dangasalik kai mavzular.

2.Metafora (istiora). Xalq maqollarida ko'p uchraydigan yana bir badiiy-tasviriy vositalardan biri metaforadir. U badiiy adabiyotlarda qisqacha o'xshatish deb ham yuritiladi. Maqollarda istioraviy ko'chimlar asosan yetakchi semantik vazifani bajaradilar.

Masalan: “Et bilan tirnojni ajratib bo'lmas” maqolidagi “et va tirnoq” so'zlari yaqin qarindosh-urug',og'a-ini o'rtasidagi yaqinlikka ishora qiladi.

Folklorshunos olimlarning fikricha, maqoldagi asosiy mazmunni keng bayon etish, uning mohiyatini atroflicha sharhlashga maqol tabiatidagi lo'ndalik va ixchamlik

yo'l bermaydi. Shuning uchun ham mazkur janrda metaforik yasvir juda qo'l keladi.

3.Mubolag'a san'ati. Maqollarda xalq tajribasida sinalgan ezgu ideallar kuchaytirilib, xalq idealiga mos kelmaydigan xislatlar salbiy jihatdan bo'rttirib tasvirlanadi. Bunday holatlarda biz maqollarda mubolag'a san'ati qo'llanilganini ko'ramiz. Masalan: "**nafsi buzuq hayitda o'lar**" da xalq idealiga mos kelmaydigan ochko'zlik, nafsi buzuqlik qoralanadi. Bu esa shunchaki oddiy baholash emas, balki xalqning g'oyaviy-estetik bahosi sifatida keltiriladi. Xalq idealida qoralangan narsa hech qachon ijtimoiy hayotda yashamasligi lozim.

4.Jonlantirish.O'zbek xalq maqollaridagi jonlantirish usuli juda muhim vositalardan biridir.**"O'tin ayirgan bolta maydonda qolar "** maqolini tahlil qilsak, bu yerda gap jonsiz predmet "**bolta**" haqida so'z ketyapti. Aslida bolta biror narsani kesish, o'tin yorish uchun yaratilgan predmetdir. U o'z-o'zidan o'tin yorolmaydi. Mohiyat jihatidan bolta –adolatsiz, odam ayiradigan shaxslarga qarata ishlatiladi. Maqoldagi ahloqiy-falsafiy mazmun "**o'tin ayiradigan bolta**"obrazi orqali ifodalangan.[55;99]

Xullas, o'zbek xalq maqollarida badiiy ifoda hamda tasviriy vositalar rang-barang bo'lib, ular asar mazmunini reallashtirish va maqolning izchil g'oyaviy vazifasini bajarishga imkon beradi. Bu o'rinda maqollar ustida olib borilayotgan izlanishlar xalq madaniy merosini yanada boyitish va mustahkamlash uchun hizmat qiladi. O'zbek folklorshunoslar tomonidan qilingan ishlar g'oyat tahsinga sazovordir.

1.3. Ingliz xalq maqollarining ingliz folklorshunos olimlari tomonidan tadqiq etilishi.

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq o'gzaki ijodining eng sara namunalaridan biri hisoblanadi. Ishimizning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda ingliz xalq maqollarini ingliz tilshunosligida o'rganilish tarixi juda muhim. Bu sohada ish olib borgan olimlar, va ularning qilgan ishlarni o'rganish mavzuyimizni yanada mustahkamlab beradi. Shu o'rinda quyida ingliz olimlari tomonidan qilingan ishlarni keltirib o'tamiz.

Odatda tili va madaniyati bir xil bo'lган millatlarning maqollari ham bir-biriga yaqin bo'ladi. Ingliz va butun butun G'arbiy Yevropa davlatlarining xalq o'g'zaki ijodi va aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish "Bible" ya'ni Biblyaning o'rni katta. Kitob ingliz xalq maqollarini o'zida jamlagan bo'lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilan maqollar keltirilgan.

Ko'plab ingliz olimlari tomonidan maqolga quyidagicha izohlar keltiriladi. Mashhur ingliz filklorshunosi, professor Mayder maqolni quyidagicha izohlaydi: "Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the proverb. They can be used to: "strengthen our arguments, express certain generalizations, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations". [60;11]

Musavi M.ning ta'kidlashicha maqollarni o'rganishda hamisha bahslashishlar ko'p bo'lган va maqollar uchun yagona bir izoh berishning iloji yo'qligini ta'kidlaydi.U olimlar tomonidan maqol haqida aytilan barcha ta'riflar va izohlar to'g'ri ekanligiga qo'shiladi.

Rouland maqollarni quyidagicha keltiradi: "stick in the mind", "build up vocabulary", "illustrate admirably the phraseology and idiomatic expressions of the foreign tongue", "contribute gradually to a surer feeling for the foreign tongue" and proverbs "consume very little time".[60;89-90]

Jozef Reymond maqollarni quyidagicha izohlaydi :

“ Proverbs are not only melodic and witty, possessed with rhythm and imagery; proverbs also reflect “patterns of thought”. Ya’ni maqollar ixcham va ritmik tuzilgan bo’lib, nafaqat donolikni ifodalab qolmay, balki inson o’y fikrlarining aksidir.

Shirli L. Arora o’zining “The Perception of Proverbiality” asarida maqollarni qadim xalq tilidan yetib kelgan va xalqning ananaviy urf-odatlarini avlodlarga ko’rsatuvchi timsol sifatida keltiradi. U olimlar fikriga qo’shilgan holda Taylor va Seytellarning maqollar haqidagi qarashlarini o’z asarida keltirib o’tadi.

“Most definitions, to be sure, reflect the scholar's concern for proverbs as an analytical category; they are attempts to answer the question, as Seitel puts it, "How does one recognize that which he is going to study?" Even in Archer Taylor's oft-quoted-and sometimes criticized-statement to the effect that "an incommunicable quality tells us this sentence is proverbial and that one is not," the "us" is, by implication, the community of proverb scholars, for Taylor goes on to remark that "those who do not speak a language can never recognize all its proverbs, and similarly much that is truly proverbial escapes us in Elizabethan and older English." Still, traditionality--whether considered in terms of age or currency--tends to be central to the delineation of the proverb as an ethnic genre also.” [41;2-4]

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki, maqollar xalqning donoligini ifodalovchi va hamisha avlodlarga meros qoluvchi janrdir. Maqollarning mualliflari bo’lmaganidek, ularning qachon va qay paytda paydo bo’lgani ham aniq emas.

Archer Teylor o’zining asarlaridan birida ya’ni **“The Origins of the Proverb”** deb nomlangan bobida shunday fikrlarni keltirgan:

“the acceptance or rejection by tradition which follows immediately upon the creation of the proverb is a factor in its making quite as important as the first act of invention”.

“the acceptance or rejection by the hearer,” for it is with the individual hearer that “tradition” begins and - with each successive performance - will be

either extended or cut short. By exploring in greater detail the mechanisms underlying the perception of proverbiality, we will be enlarging our understanding of an aspect of the proverb that is indeed "quite as important as the first act of invention." [73;3]

Ingliz olimlari tomonidan maqollarning har xil xususiyatlari ko'rib chiqilgan va takliflar keltirilgan. Maqollar bo'yicha ko'p izlanishlar olib borgan olimlardan biri sifatida Norrikni aytib o'tishimiz mumkin. Uning maqollar bo'yicha qilgan eng sara isharidan biri turli xil olimlarning fikrlarini to'plab,o'zaro qiyoslab,aniqroq xulosalarga kelganidir. U maqollarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, ular haqida aniqroq tushunchalarga kelish kerakligini aytib o'tadi. Bular quyidagicha:

Proverbs are self-contained (Maqollar tayyor strukturli gaplar). Seyler maqollardagi mustaqil va o'ziga xos tuzulishni ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha maqollar grammatik jihatdan o'zgarmas strukturaga ega bo'lib, maqollardagi so'zlarning o'rmini bir- biri bilan alamashtirib bo'lmaydi. Norik bu fikrlarga qo'shilgan holda shunday deydi: "Seiler introduces this definitional criterion solely to distinguish proverbs from proverbial phrases".

[64;23] Demak, Norik Seylerni fikrini ma'qullagan holda shu qarorga keladiki, maqollar grammatik jihatdan qattiq strukturaga ega bo'lib, ularda ishlatilgan iboralar bunga misol bo'la oladi. Chunki maqollarda ko'pincha iboralar ishlatilishi ham ulardagi ma'lum qolip shakllanganini ko'rsatadi va ibora bilan maqol o'rtasidagi farqlarni ham aytib o'tadi.

- **Proverbs are (propositional) statement (Maqollar axborotlardir).** Norik maqollar mavjud voqeа yoki hodisaning axborotchisi deydi va olimlardan biri keltirgan fikrni beradi."Abrahams is perhaps more precise in requiring the proverb to be a full statement."
- **Proverbs are (grammatical) sentences (Maqollar (grammatik) gaplardir).** Maqollar grammatik strukturaga ega gaplardir va uning bu xususiyatlarini o'rganish ham ingliz olimlari e'tiboridan chetda qolmagan. Teylording fikricha maqollar xuddi gaplardek tugal bo'lishi shart. Bundan

tashqari Abrahams, Honek va Mayderlar ham ushbu fikrlarni qo'llab quvvatlaganlar. Masalan: “**Barking dogs never bite**” maqolini grammatik jihatdan tahlil qilsak “Barking dogs” ega vazifasini, “bite” kesim vazifasini, “never” ravish bo’lib kelgan. Gap hozirgi oddiy zamonda, aktiv nisbatda ifodalangan. Ega ko’plikdagi ot va oldidan sifat vazifasini bajarayotgan gerundiy orqali ifodalangan.

- **Proverbs are tradition (Maqollar ananaviydir).** Maqollarning o’ziga xos jihatlardan yana biri maqollardagi ananaviylikdir. Bu haqda Norik quyidagicha fikr bildiradi: “*The traditional nature of proverbs correlates closely with their status as items of folkloric*”.

Maqollar nazariyasi haqida o’z izlanishlarini olib borgan olimlardan biri Trench bo’lib, u maqollardagi 3 narsani “**shortness, sense, salt**” ya’ni “**qisqalik, hissiyat,ta’m**” ni juda muhim deb hisoblaydi. Bularni quyida qisqacha keltiramiz:

1. **Shortness (Qisqalik):** Trench maqollardagi qisqalik eng muhim omil deb aytadi. Yaxshi maqol hamisha qisqa, yurakdan aytilib yurakka yetib borishi lozim deydi. U ba’zan 2,3, yoki undan ortiq so’z bilan ifodalangan bo’lishi ham mumkin. Maqollar odatiga ko’ra ixcham shaklga ega, biroq olam-olam ma’no anglatishi zarur degan fikrlarni keltiradi.
2. **Sense (Hissiyot):** Trenchning ta’kidlashicha maqollarda hissiyat maqolni obrazliligini oshirib beradi.
3. **Salt (Tam):** “a proverb must have salt, that is, besides its good sense it must in its manner and outward form being pointed and pungent, having a sting in it, a barb which shall not suffer it to drop lightly from the memory”.[74;67-70.]

Trench va Norikni fikrlariga mutlaqo qo’shilgan holda ularning asl mohiyatini tushunishga harakat qilamiz. Aslida maqollar ustida ish olib borish jarayonida maqollarning ayni ichki tuzilish jihatlarini to’liq o’rganib chiqish bu ishimizning muhim poydevori bo’la oladi. Maqollarni semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish jarayonida aynan shu nazariyalarga yondoshaksak ishimiz o’z natijasini bera oladi.

Ingliz xalq maqollari ustida izlanishlar olib borayotgan bir paytda professor Mayderning xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. Chunki u maqollar ustida juda ko'p izlanishlar olib borgan va nazariy asarlarni yozishga erisha olgan olimlardan biridir. U o'z asarlarida maqollarning eng muhim ahamiyatli tomonlarini to'laligicha izohlashga harakat qilgan. Va o'z asarlaridan birida quyidagicha fikrga keladi:

“Of the various verbal folklore genres (i.e., fairy tales, legends, tall tales, jokes, and riddles), proverbs are the most concise but not necessarily the simplest form. The vast scholarship on proverbs is ample proof that they are anything but mundane matters in human communication. Proverbs fulfill the human need to summarize experiences and observations into nuggets of wisdom that provide ready-made comments on personal relationships and social affairs. There are proverbs for every imaginable context, and they are thus as contradictory as life itself. [60;111]

Bundan tashqari u bir qancha misollar orqali, masalan “*Absence makes the heart grow fonder*”, “*Out of sight, out of mind*” yoki “*Look before you leap*” va “*He who hesitates is lost*” kabi maqollarda nafaqat falsafiy mantiqning bo'g'liqligini balki ma'lum sharoitni ifodalash uchun tanlab aytilgan maqol shu sharoitning mazmunini xulosaviy ifodalashi shartligini ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda u maqollarning bugungi zamonaviy dunyomizdagи ahamiyati haqida ham so'z yuritadi:

“Contrary to some isolated opinions, proverbs have not lost their usefulness in modern society. They serve people well in oral speech and the written word, coming to mind almost automatically as prefabricated verbal units. While the frequency of their employment might well vary among people and contexts, proverbs are a significant rhetorical force in various modes of communication, from friendly chats, powerful political speeches, and religious sermons to lyrical poetry, best-seller novels, and the influential mass media. Proverbs are in fact everywhere, and it is exactly their ubiquity that has led scholars from many disciplines to study them from classical times to the modern age. [60; 111]

Mayderning paremiologiya sohasi bo'yicha qilgan xizmatlarini quyida u yaratgan asarlar orqali ko'rish mumkin. Jumladan: *International Bibliography of Explanatory Essays on Individual Proverbs and Proverbial Expressions* (1977), *Proverbs in Literature: An International Bibliography* (1978), *The Wisdom of Many: Essays on the Proverb* (1981), *Proverbs Are Never Out of Season: Popular Wisdom in the Modern Age* (1983), *Investigations of Proverbs, Proverbial Expressions, Quotations and Cliches: A Bibliography of Explanatory Essays which Appeared in "Notes and Queries"* (1984), *Twisted Wisdom: Modern Anti-Proverbs* (1999), *Proverbs: A Handbook* (2004), "*Proverbs Speak Louder Than Words*". *Folk Wisdom in Art, Culture, Folklore, History, Literature, and Mass Media.*(2008), *Proverbs and the Social Sciences: An Annotated International Bibliography* *International Bibliography of Paremiology and Phraseology* (2009).

Ingliz folklorshunos olimlaridan biri sifatida Honekning maqollar ustida olib borgan chuqur izlanishlarini keltirmay ilojimiz yo'q. Honek maqollarning tarixi haqida so'z yuritib, ularning jamiyatning har bir sohasida faol tarzda foydalanimishini aytadi.

"Paremiology, the study of proverbs, is practiced by many different kinds of people including cultural anthropologists, psychologists, folklorists, linguists, sociologists, educators, psychiatrists, historians, students of religion, literature buffs, and even lawyers, advertising executives, management consultants, and an occasional proverb aficionado. All these sentences imply the importance of proverbs. [53;12]

Honek maqollarni jamiyatning barcha sohasida folklorchi olimlardan tortib to siyosatchilar, hatto huquqshunoslar ishida ham ahamiyatga ega ekanligi aytadi. Shunga ko'ra maqollarning turli xil maqsad va vazifalari, istiqbollari, taxmin va farazlari, uslublari va nazariy xulosalari mavjudligini ta'kidlaydi.Uning fikricha maqollar aniq va tugal nazariyaga ega emas.Lekin Honek o'zining "A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom" asarida maqollarning o'ziga xos 7 ta muhim xususiyatini ko'rsatadi:

- **Personal:** The proverb is treated from a subjective viewpoint based purely on personal experience and understanding.
- **Formal:** This is a scientific approach that primarily uses the methods and concepts of linguistics, logic, and semiotics to define, classify and semiotics to define, classify and otherwise analyze proverbs.
- **Religious:** Religious teaching and wisdom are examined in texts.
- **Literary:** Proverbs in prose and poetry re analyzed in terms of their literary value and what they tell us about the writer, their times, and so forth.
- **Practical:** The many uses of the proverb in intelligence testing, psychotherapy and other areas are examined.
- **Cultural:** This is a scientific approach to the proverb that treats it as a multifunction from of folk literature that arises from and is embedded in a sociocultural context.
- **Cognitive:** this is a scientific approach based on cognitive science that attempts to explain how individuals use and understand proverbs. [53;14]

Ko'rib turganingizdek, maqollar uchun berilgan har bir nazariyaning maqollarni tadqiq qilishda o'ziga xos ahamiyati bor.

Xuddi o'zbek maqollari singari ingliz maqollarida ham turli xil badiiy vositalarning maqppardagi faol ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Maqppardagi badiiy vositalarning ishtirokini ingliz olimlaridan Arora o'zining bir qator maqolalarida keltirib o'tadi.

❖ Maqppardagi alliteratsiyaning mavjudligi:

No fool like an old fool.

❖ Maqppardagi ritmning mavjudligi:

A friend to everybody is a friend to nobody

❖ Inversiyaning mavjudligi:

Better is a neighbor nearby than a brother far away.

❖ Tazod sanatining ishlatalishi:

Fools never know when they are well.

Xullas, badiiy san'at vositalari maqollarni yanada ta'sirchan qilib berishga yordam beradi.Ularni ixchamlashtiradi, aniq hukm ifodalashda yetakchilik qiladi.

Biz ingliz folklorshunosligida maqollar ustida olib borilgan izlanishlarni tahlil qilib chiqar ekanmiz, har bir nazariya fanda o'z isbotini topib kelayotganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu o'rinda mashxur professorlar Honek, Norik, Mayder, Taylor, Arora kabi olimlar ingliz maqollari ustida eng ko'p izlanishlar olib borgan olimlardir.Ular yozgan asarlar maqollarning haqiqiy nazariyalarini amaliyot orqali isbotlab ko'rsata oladi. Ingliz tilida maqol o'ta murakkab va juda ko'p izlanishlar olib borilgan sohardan biridir. Ayniqsa maqollarning nazariy jihatdan qilingan ko'plab yangiliklari bu soha ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarga asosiy poydevor bo'la oladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

Ingliz va o'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodining paremiologiya sohasi bo'yicha o'rganiladi va o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq o'g'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya'ni, ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari, maqollarda ibratilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi.

O'zbek va ingliz maqollarining folklorda o'rganilish tarixini qiyosiy o'rganish orqali qaysi tilda ularning tadqiq qilish darajasi mukammal yoki sayoz ekanligini ko'rib chiqdik.Aсосан, o'zbek va ingliz tiliga maqollar qadimdan to'plovchilik orqali yetib kelgan. Bu borada o'zbek tilida Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devoni lug'otit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ingliz tilida maqollar kitobi deb atalmish "Bible" ingliz xalq maqollarini o'zida jamlagan bo'lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar keltirilgan. Bu ikki manbada qadimda mavjud bo'lgan maqollar to'plangan va bugungi kungacha yetib kelgan.

Maqollar ustida qizg'in izlanishlar asosan 19-asrdan boshlangan bo'lib, o'zbek folklorshunoligida Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzaev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqlarov, R. Zarifov kabi olimlar asosan maqollarni yig'ib ularni to'plam holiga keltirish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlar. Keyinchalik maqollarning ichki strukturaviy tuzulishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish ya'ni maqollar bo'yich tarjimashunoslik ishlari boshlangan. Bu o'rinda M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, G'.Salomov, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R. Rasulovlarning o'rni beqiyos.

Ingliz maqollari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honek, Norik, Mayder, Teylor, Aroralarni ayta olamiz. Ular maqollarni o'ziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzulish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar.

Agar maqollarning har ikkala tilda o'rganilish jihatlarini solishtiradigan bo'lsak, maqollarni to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o'rnini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish kabi masalalar deyarli bir xil. Biroq maqollarning nazariyalariga bag'ishlangan asarlarning ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'pligi ingliz maqollarining nazariy jihatlari o'zbek maqollariga nisbatan ko'proq o'rganilganligini ko'rsatadi. O'zbek tilida o'zbek olimlari tomonidan bu ishga ko'p marotaba qo'l urilgan. Asosan o'zbek va ingliz maqollarini solishtirish uchun o'zbekcha tarjimalarini berish, muqobil variantlarini keltirish va semantik xususiyatlarini isbotlash ishlari qilingan.

Xullas, o'zbek va ingliz tillarida maqollarning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Maqollarning semantik xususiyatlariga ko'proq to'xtalingan. Ammo o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlari bo'yicha uncha ko'p ishlar qilinmagan.

IKKINCHI BOB

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash.

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning har taraflama jihatlarini o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'l mish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Ushbu bobimizda o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishiga harakat qilamiz.

Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqni tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. U buni quyidagicha izohlaydi:

"Cultural factors are deeply interwoven with the language, and thus are morphologically and structurally reflected in the forms of the language." [75;55-75]

Mashhur tilshunos Sapir shuni ta'kidlab aytadiki, tildagi so'z boyligi insoniyatning jismoniy va ijtimoiy atmosferasi orqali vujudga kelgan. Va bu nazariya asosida tilni madaniyatning bir qismi sifatida keltirishimiz mumkin.

Umuman madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyonи anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi.

V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bo'g'liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalar ekan, shubxasiz paremiologoya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqr ifodalay oladi. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya'ni lingvokulturologiya asoslay oladi. Teliya buni shunday ataydi:

“ if language contributes to the formation of a collective cultural identity, also paremiology, due its wide spectrum of different forms of usage and due to the fact that it often includes elements which have a strong relationship with the culture of a specific country (part of the body, animals, and colors), can be considered as a domain of linguistics which seems to adequately illustrate the correlation between culture and language. This suggests a new direction of research for proverb studies, called “linguo-cultural investigation”, or the analysis of proverbs for cultural data as represented in linguistic meanings”[75; 55-75]

Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti.

Teliya maqollarni “direct cultural signs” deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko’rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo’nda umuman olganda to’laligicha ifodalay oladigan ko’zgu deb hisoblaydi. U bu haqda o’z ishlaridan birida shunday deb o’tadi:

“After having described the interaction between language, culture and proverbs, it seems also important to mention the ways in which culture is implemented through language. Each culture has a set of proverbs that could be defined as basic, when they enter the lexicon and the language, it is possible they act as “direct cultural signs”. On the other hand, when linguistic symbols interpret these cultural patterns, then these symbols transform themselves into bodies of those cultural patterns; in this case, language units acquire the status of standard.”[75;55-75]

Demak, xalqning tilida mavjud bo’lgan har bir so’z tilda ifodalanar ekan, ma’lum xalqning maqollari o’sha xalq tilida keltirilgan so’zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o’ziga xos xususiyatlari bilan, yasalish usuli bilangina ifodalanadi.

Ko’plab olimlar Henl P. (1958), Sepir E. (1958), G.G Morian (1986), Kramsh C.(1993) madaniyat va tilning bo’g’liqligi kabi masalalarga o’z ishlarida to’xtalib o’tganlar.Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to’xtalgan holda olimlardan Nida quyidagilarni bayon etadi:

“ one of the most challenging aspects of investigating proverbs of a language is the fact that, being considered as one of the best examples of cultural-linguistic interaction, its categories and identified units are continuously changing, so as culture and language are. This is due to the fact that, contrary to fol or intuitive conceptions, language does not lie in dictionaries nor in grammars, but it only exists in the people’s minds.[75;55-75]

Nida maqollarni o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi.

Aslida tadqiqot ishimizning asosiy qismidan biri bo'l mish ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rib chiqib, ularning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish ishimizning muhim bosqichlaridan biridir. Shu sababli yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda bir qancha o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarni chuqur tahlil qilib, keltirilgan fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz. Ularda xalq turmush tarzi qay darajada ifodalanganligini misollar yordamida keltirishga va ikki tilda mavjud bo'lgan maqollarning solishtirma tahlili orqali o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatishga harakat qilamiz. Masalan:

Inglizcha: “**The nearer the Church, the farther from God”**

maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak - *cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar-* ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: “**Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas**” maqoli orqali ifodalanadi.

Inglizcha maqoldagi “**Church**” so'zi o'zbekcha tarjimada “**cherkov**” so'zini beradi. “**Cherkov**” so'zi asli o'zbekcha so'z emas, lekin o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan termin sifatida mavjud. “**Cherkov**” xristian diniga mansub bo'lgan insonlarning shu dinga xos bo'lgan rasm-rusumlarini bajaradigan joy hisoblanadi. O'zbek tilida bu so'zga nisbatan ekvivalent sifatida “**masjid**” so'zini keltirsak bo'ladi. Agar ikki xalqning dinidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'zbek xalqining ko'pchilik qismi islom diniga, ingliz xalqi deyarli xristian diniga sig'inadi. Xristian dinida cherkov xristianlar uchun eng muqaddas joy sanaladi va yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xristian diniga xos urf-odatlar, an'analar o'sha joyda o'tkaziladi. Islom dinida musulmonlar uchun islom diniga oid rasm-rusumlarni o'tkazish uchun cherkovni aytolmaymiz. Chunki musulmonlar islom

diniga xos urf-odatlarni bajarish maqsadida masjid, madrasa kabi ulug' va muqaddas dargohlarga tashrif buyurishadi. “**Cherkov**” va “**masjid**” so'zları har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir. Bu o'rinda xalq o'ziga xos va mos bo'lgan termindan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida “**cherkov**” so'zi ishlatilmadi.

Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko'rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi. Agar maqollarning ma'noma'mzuni tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz xalqining dinida, cherkov ular uchun naqadar muqaddas joy ekanligini maqolda ifodalangan ma'nodan bilish mumkin. Ularning fikricha doimiy cherkovga boraveradigan shaxs har doim ham xudojo'y bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali dinni niqob qilgan, aslida hech qanday diniy bilimga ega bo'lмаган shaxslar ifodalanyapti. Cherkov ular uchun shu qadar muqaddas joyki, uni ko'ngli, qalbi kir insonlar yolg'ondan ulug'lashini istamasligi butun bir xalq tilida ifodalangan. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha:

Besh vaqt namozini tark etmas,

Harom-xarishni farq etmas.

Unda ishlatilgan “**besh vaqt namoz**” “**harom-xarish**” kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. O'zbek xalqining asosan musulmonlardan iborat ekanligi, ular uchun islom dini buyuk va islom dinidagi eng muhim burchlardan biri besh vaqt namoz o'qish ekanligi o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Besh vaqt namoz o'qish islom dinida musulmonlar uchun eng muhim burchlardan biridir. Asosan musulmonlar va o'zbek xalqi uchun besh vaqt namoz o'qish bu ularning kundalik hayotining bir qismidir. Shu sababli xalq bu so'zlardan hayotiy jarayonlarda foydalanadi va bu o'zbek xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari “**harom-xarish**” kabi so'zlar islom dinida va shu o'rinda o'zbek

xalqi tomonidan ko'p ishatiladigan so'zlardan biridir. Ota bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan pand –nasihatlarga qulq soladigan bo'lsak, unda hamisha oq-qorani tanish, halol- xaromni bir-biridan ajratish kabi masalalarga juda jiddiy qaralgan. Bu holda maqolning har ikkala tildagi variant ham bir xil ma'noni beradi.

Demak, o'zbek xalqining ko'pchilik qismi musulmon va besh vaqt namoz o'qiydi, ingliz xalqining ko'p qismi xristian va ular uchun cherkov eng muqaddas dargohdir. Ko'rib turganingizdek, xalq turmush tarzida mavjud narsalar yoki kundalik yumushlar maqollar orqali ifodalandi. Agar o'xshash tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, har ikkala xalq ham dindor va dinidan kelib chiqqan holda, o'z dini uchun muqaddas joylari va muqaddas odatlari bor. Biroq bu ikki tilda ifodalangan maqolning ma'no-mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir va har ikkala xalqning faqat o'zigagina xos bo'lган odatlarini ifodalaydi.

Agar dinlararo umumiy tushunchalarga to'xtaladigan bo'lsak, u qanday din bo'lishidan qat'iy nazar barchasida *jannat*, *do'zzax*, *shayton*, *farishta* kabi tushunchalar mavjuddir. Islom dinida *shayton* yoki *jahannam* kabi so'zlar salbiy bo'yoqdor so'zlar hisoblanadi va xalq tomonidan ham salbiy ma'noda ishlatiladigan so'zlardir. Xo'sh, bu ingliz xalqi tomonidan qanday qabul qilinadi va bu jihatlar maqollarga singganmi? Ushbu savollarimizga javob olish maqsadida quyida bir qator *do'zzax*, *shayton* kabi so'zlar ishlatilgan maqollarni o'zbek va ingliz tillaridagi variantlarini tahlil qilgan holda, o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz:

№	Inglizcha maqol	O'zbekcha tarjimasi	O'zbekcha varianti
1.	Hell has no fury like a woman scorned.	Tashlab ketilgan ayolga teng keladigan ajina [qasos olish borasida] jahannamda ham yo'q.	Xotin avjiydi, el aljiydi.

2.	When Hell freezes.	Jahannam muzlaganda.	Tuyaning dumi yerga tekkanda.
3.	Better the Devil you know than the devil you don't know.	Tanimagan shaytondan tanish shayton yaxshi.	Sinalgan yov urushga yaxshi.
4.	The Ha Devil can cite Scripture for his purpose	O'z maqsadida shayton Muqaddas Kitob ustida ham qasam ichadi	Shaytonning ozdirgani - o'zniki.
5.	The Devil finds work for the idle hands to do.	Shayton bo'sh qo'lga ish topib beradi.	Dangasa boshin yesin, llatning g'amin yesin.
6.	The Devil is good to his own.	Shayton o'zinikini xush ko'rар.	It itning quyrug'ini bosmas.
7.	He must have a long spoon that sups with the Devil.	Shayton bilan ovqatlangani o'tirsang, uzunroq qoshiq ol.	Yomondan to'n kiysang, To'yda "to'nim ber" deydi.
8.	He must go whom the Devil drives.	Shayton yetaklasa yurishga majbursan.	O'zimdan chiqqan baloga, Qayga boray davoga.
9.	The Devil knows many things because he is old.	Shayton ko'p narsani biladi, chunki ko'p yashagan.	Qari bilganni pari bilmas.

[56;62-65,157-158]

Jadvaldan ko'rib turganingizdek **do'zzax va shayton** kabi so'zlarning ingliz xalq maqollarida mavjudligi shuni ko'rsatadiki, ingliz xalqi dinda bu tushunchalar

mavjudligiga ishonadi va maqollar ma'nosidan kelib chiqqan holda barchasi salbiy ma'noda ishlatiladi. Agar ushbu mavzudagi maqollarning har ikkala tilda ishlatish o'rnlari va ma'no mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu so'zlar ishtirok etgan maqollar har ikkala tilda ham salbiy obrazlarni gavdalantiradi. Biroq eng so'nggi keltirilgan “**The Devil knows many things because he is old**” maqoli o'zbekchada “**Qari bilganni pari bilmas**” maqoli orqali ifodalandi. Maqolning o'zbekcha variantida ijobiy ma'no kuzatilyapti. Agar o'zbekcha varianti bilan solishtiradigan bo'lsak, o'zbek tilida bu ijobiy xislatlarni ko'rsatadi. Ya'ni o'zbek xalqi nuroniy, uzoq yashab kelayotgan qariyalarni hayot tajribasini qadrlashadi va ularni hatto pariga tenglashtiradi. Bu o'rinda maqol ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko'rsatyapti. U holda inglizcha ushbu maqolga boshqacha o'zbekcha variant qidirish ehtiyoji tug'iladi. Yoki inglizcha maqolga mualliflar tomonidan noto'g'ri variant qo'yilgan degan xulosaga kelinadi. Chunki o'zbek xalqi tomonidan **shayton** obrazi hech qachon ijobiy baholanmagan.

Xullas, o'zbek va ingliz tillaridagi **shayton va do'zzax** so'zlari ishlatilgan maqollar ko'p hollarda salbiy ma'noni anglatadi va bu jihatlari bilan o'zbek va ingliz xalqining diniy qarashlaridagi ayrim tushunchalar tilda bir xil holatda tushuniladi va ishlatiladi.

Ingliz xalqi tomonidan ko'p ishlatiladigan yana bir maqollardan biri bu-“**Two blacks do not make a white** “. O'zbekcha tarjimasi - **Ikki qora qo'shilib bir oq bo'lolmaydi**. O'zbekcha variant sifatida:

“**Qora itning uyati oq itga tegar**” [56;29] dan foydalilanadi. Agar maqollarning kelib chiqish etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu maqol aynan qaysi xalq tomonidan kelib chiqqanligini aniqlay olamiz. Avval ishimizga aniqlik kiritish maqsadida maqolni grammatik tahlil qilsak.

Inglizcha “**Two blacks do not make a white** “ maqolida **black** va **white** so'zlari aslida sifat so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bo'lib, shaxs yoki narsaning belgisususiyatini ifodalaydi. Va hech qachon orqasidan –“S” ya'ni ko'plik

qo'shimchasini va yakka o'zi oldidan artikl olmaydi. Bu holatda sifat otlashib insonga xos jihatlarni ko'rsatib shaxsni bildiruvchi so'z bo'lib kelgan. Ya'ni **a black** aslida **a black man,a white- a white man** so'zlaridagi **man** so'zi tushib qolgan. Bular ingliz tilida **qora tanli va oq tanli odam** tarjimalarini beradi. Endi maqolga biroz aniqlik kirdi, ya'ni ikki qora tanli odam hech qachon bir oq tanli odamdek bo'lolmaydi. Ma'qolning tarjimasidan kelib chiqqan holda, nega ushbu maqol aynan ingliz xalq maqollari tarkibida uchrashini isbotlashga harakat qilamiz. O'tgan davrlarda nafaqat Angliya, balki boshqa Yevropa davlatlarida ham ulkan quldarlik tizimini olib borish, aynan qora tanli odamlar oq tanli, boy odamlar tomonidan qul qilib ishlatilgani barchaga ayon. O'sha davrda hech qachon oq tanli kishi bilan qora tanli kishi bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lмаган. Natijada ko'pchilik qora tanli kishilar boy va zodagon oq tanlilar tomonidan boshqarilgan. Bu o'z- o'zidan xalq ruhiga singgan. Natijada bu holatlar tilga ta'sir eta boshlagan va maqollarda o'z aksini topgan.

Demak, "**Two blacks do not make a white**" maqolida **birinchidan**, qora tanlilar qanchalik ko'p bo'lsa ham oq tanlilar qo'l ostida yashayveradi va ular hech qachon oq tanlilar kabi yasholmaydi degan ma'no yotadi. **Ikkinchidan**, barcha yomon narsalar va shaxslar har doim qora rang ostida ifodalanadi. Barcha yaxshi narsalar oq rang bilan ifodalanadi va yomon narsalar qanchalik ko'p bo'lmasin, bir yaxshini o'rmini hech qachon bosolmaydi kabi ma'nolar bor.

Maqol birinchi ta'rif orqali qadimda , ya'ni qulchilik davrida yaratilganligini ko'rsatsa, ikkinchi ta'rif orqali bugungi kundagi ifodasini beradi. Hozirda ingliz xalqi tomonidan maqolning birinchi ma'nosi tushunilmaydi. Chunki Angliya va Amerikada har bir fuqaro oq tanli yoki qora tanli bo'lishidan qat'iy nazar teng huquqqa ega fuqaro hisoblanadi.

Agar maqolning o'zbekcha varianti bilan tanishadigan bo'lsak, o'zbek tilida bu maqol hech qachon ingliz tilida berilgan birinchi ta'rifdek ma'no anglatmaydi. Chunki o'zbek xalqi tarixida oq tanli va qora tanli kabi irqlarga ajratishlar bo'lмаган. Buning natijasida o'zbek xalqi kundalik turmush tarzida ham bu

so'zlarni uchratish qiyin. Ammo ikkinchi ma'nosi bilan o'zbek xalq urf odatlariga yaqinroq keladi. “**Qora itning uyati oq itga tegar**” maqoli orqali xalq bitta yomon odam yoki bitta yomon narsa ko'pchilikka zarar keltirishi mumkinligini aytadi.

Demak, maqolning ***birinchi ta'rifidan*** kelib chiqadigan bo'lsak “**Two blacks do not make a white**” maqoli o'zbekcha “**Qora itning uyati oq itga tegar**” maqoliga teng emas, ya'ni ular bir-biriga ekvivalent bo'lolmaydi. Ammo ***ikkinchi ta'rif*** orqali tahlil qilsak maqollarning ma'nosi deyarli bir xil holatni ifodalaydi.

Xullas, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bilimlar va yangiliklar fikrlarimizni isbotini nazariy jihatdan asoslab bergen bo'lsa, yuqorida lingvokulturologik jihatdan o'rganilgan ayrim ingliz va o'zbek maqollarini ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib beradi. Ahamiyatli tomoni shundaki, har ikki tilda mavjud bo'lgan bir xil maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Buning sababi shundaki, xalqda bor narsa uning tilida ham ifodalanadi. Agar bir narsa yoki holat har ikkala tilda ham mavjud bo'lsa, maqol ko'pincha bir xil ma'no anglatadi. Agar buning aksi bo'lsa, maqollar umuman boshqacha ma'no berishi yoki bir maqolning muqobil varianti qiyoslanayotgan tilda umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha millatga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollar bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rasatib bera oladi.

2.2. O’zbek va ingliz tillaridagi maqollarining mavzu jihatidan bir-biriga o’xhash va farqli tomonlari.

Ushbu bobimizda ingliz va o’zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlariga to’xtalar ekanmiz, shu o’rinda har ikkala tilda mavjud bo’lgan maqollarining mavzu jihatidan bir-biriga o’xhash va farqli tomonlarini o’rganish ishimizning ushbu qismini boyitib beradi. Bundan tashqari har ikkala tilda mavjud bo’lgan maqollarining ma’lum mavzu doirasiga kirishi va bu mavzuga doir maqollarining har ikkala tilda muqobil variantlarini topa olish orqali xalqning ayrim o’ziga xos xususiyatlarni ifodalashga harakat qilamiz. Maqollarining umumiyligi ma’nosidan kelib chiqib, ularni ma’lum mavzu doiralarga ajratish orqali ingliz va o’zbek xalqlarining mentalitetiga xos jihatlarni maqollarda ifodalanish xususiyatlarini keltirib o’tamiz. Ushbu qismda ingliz va o’zbek tillarida mavjud bo’lgan maqollarining barcha mavzuga oid jihatlarini o’rganib chiqamiz. Asosan har ikkala tilda bor bo’lgan yoki umuman uchramaydigan maqollarining qiyosiy tahlilini qilgan holda nega tilda mavjud yoki mavjud bo’lmaganlik sabablarini o’rganib chiqamiz.

O’zbek va ingliz xalq maqollari mavzu jihatidan juda rang-barangdir. Agar barcha o’zbek va ingliz xalq maqollari keltirilgan to’plamlarni ko’rib chiqadigan bo’lsak, ularda o’zbek xalqi hayotining har bir jabhasida uchraydigan narsalar va turli xil hodisalarining maqollarda ifodalanishiga guvoh bo’lamiz.

Filologiya fanlari doktori, professor To’ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005- yilda chiqqan to’plamida o’zbek xalq maqollarining 70 ga yaqin mavzudagi maqollarining jamlanmasi berilgan. To’plamda o’zbek xalq hayotining barcha sohalarida uchraydigan maqollarni topishimiz mumkin. Ilmiy ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda “**O’zbek xalq maqollari**” to’plamidagi bir xil mavzudagi maqollarining har ikkala tilda muqobil variantiga ega yoki ega emasligini sabablarini xalqlarning mentalitetidan kelib chiqqan holda isbotlashga harakat qilamiz. Tahlil qilinadigan barcha o’zbek xalq maqollarining inglizcha muqobil

variantlarini K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “ Proverbs. Maqollar. Пословицы” deb nomlangan kitobidan keltiramiz.

№	Mavzu	Inglizcha maqol	O’zbekcha tarjimasi	O’zbekcha muqobil varianti
1.	Vatan va vatanparvarlik	Every bird likes its own nest.	Har bir qush o’z inini sevadi.	Bulbul chamanni sevar-Odam Vatanni.
2.	Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik	Speak less but do more.	Ko’p gapirma, ko’p ishla.	Qo’ling ishda, ko’ngling Allohdha bo’lsin.
3.	Halollik va tekinxo’rlik	Back is spent under his belly, What is got over the devil's.	Shayton kuchi bilan topilgan, shayton puchi bilan ketar.	Haromdan yig'ilgan haromga ketar
4.	To’g’rilik va egrilik	Ill gotten, ill spent.	Yomonlik bilan topilgan yomonlikka ketar.	Haromdan kelgan haromga ketar.
5.	Yaxshilik va yomonlik	Forgive and forget.	Kechir va unut.	Yomonlikni yaxshilik bilan yeng.
6.	Yaxshi so’z va yomon so’z	A bad excuse is better than none.	Xohlamasdan kechirim so'rash yo'g'idan yaxshidir.	Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan.
7.	Adolat,insof va insofsizlik	Give him an inch and hell take an ell.	Unga bir duym [2.5sm] bersang, bir el [113sm] oladi.	Insof bilan qo'l uzatsang, Noinsof yelkanggacha chiqar.

8.	<i>Do'stlik</i> <i>va dushmanlik</i>	A friend in need is a friend indeed.	Qiyinchilikdagi do'st — asl do'st.	Jonga kuygan jondan do'st, Jonga kuymas qanday do'st.
9.	<i>Botirlilik</i> <i>va qo'rqaqlıq</i>	Losers are always in the wrong.	Yutqazganlar-ning doim jahli chiqadi.	Yiqilgan kurashga to'ymas.
10.	<i>Tenglik</i> <i>va tengsizlik</i>	It is an equal failing to trust everybody and to trust nobody.	Hammaga ishongan va hech kimga ishonmaslik bir xil xatodir.	Har kimning bo'yiga qarab to'n bich.
11.	<i>Donolik</i> <i>va nodonlik</i>	Long hair and short wit.	Sochi uzun, aqli kalta.	Aqli boshda soch turmas.
12.	<i>Ilm,kasb-hunar</i> <i>va ilmsizlik</i>	Invention breeds invention.	Topqırılık topqırılıknı yaratadi.	Bilimlining bilimi yuqar, Bilimsizning nimasi yuqar.
13.	<i>Mardlik</i> <i>va nomardlik</i>	Grasp the nettle and it won't sting you.	Qichitqi o'tni shartta ushlasang, u kuydirmas.	Mard yo'lida g'ov bo'lsa, Bir hamlada dov bermas.
14.	<i>Tarbiya va odat</i>	Go to bed with the lamb, and rise with the lark.	Qo'zichoq bilan bir paytda o'ringa yotib,to'rg'ay bilan baravar uyg'on.	Erta turgan ish bitirar, Kech turgan ko'p turtinar.
15.	<i>Mehmon</i> <i>va mehmondo'stlik</i>	A constant guest is never welcome.	Doimiy mehmon hech qachon xush kelmas.	Oyda kelganga — oyoq, Kunda kelganga — tayoq.

16.	Saxiylik baxillik	va	He gives twice who gives quickly	Tez bergen ikki barobar berar.	Berganning yuzi yorug', Bermaganning yuzi choriq.
17.	Go'zallik xunuklik	va	Beauty will buy no beef.	Chiroyga go'sht olib bolmas.	Chiroyga non botirib yeb bolmas.
18.	Kamtarlik manmanlik	va	The higher up, the greater the fall.	Balandroqqa chiqqan, qattiqroq yiqilar.	Manmanga — zavol, yomonga — ajal
19.	Baxt, omad omadsizlik	va	Happiness takes no account of time.	Baxt vaqtga qaramas.	Baxt vaqtni kutmas.
20.	To'g'ri so'z yolg'onchilik		A liar is not believed when he speaks the truth.	Yolg'onchi rost gapirganda ham unga ishonishmaydi.	Yolg'onchi chin deyolmas, Chin desa ham, el inonmas
21.	Sabr-qanoat sabrsizlik		Patience is the best remedy for every trouble.	Sabr har qanday qiyinchilikka qarshi eng yaxshi chora.	Sabr- muvaffaqiyatning kaliti.
22.	Qadr-qimmat va qadrsizlik		We never know the worth of water till the well is dry.	Quduq qurimaguncha biz hech qachon suvning qadriga yetmaymiz.	Oldingda oqar suvning qadri yo'q
23.	Muhabbat va bevafolik		Love is the reward of love.	Sevgiga mukofot sevgidir.	Sevdim deb maqtanma, Sevildim deb maqtan.

24.	Oila <i>va qo'shnichilik</i>	A good wife makes a good husband.	Yaxshi xotin yaxshi erni yaratadi.	Erni er qiladigan ham xotin, Qora yer qiladigan ham xotin.
25.	Qarindosh-urug'chilik <i>va begonalik</i>	More kin than kind.	Mehriga nisbatan qarindoshligi ustun.	Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yot yaxshi.
26.	Farzand <i>va befarzandlik</i>	Happy is he that is happy in his children.	Bolalarida baxtli odam baxtiyordir.	Farzand baxti — ota taxti, Farzand kamoli — ota jamoli.
27.	Ta'magirlik <i>va ochko'zlik</i>	To lay it on with a trowel.	Andava bilan pardozni bo'rttirmoq.	Hushomadgo'yning salomi ta'masiz bo'lmas.
28.	Umid <i>va umidsizlik</i>	Hope is as cheap as despair.	Umid umidsizlikdek arzondir.	Umid to'rga tortar, Umidsizlik — go'rga.
29.	Barqarorlik <i>va beqarorlik</i>	Promise is debt.	Va'da qarzdir.	Va'da -tosh devordan qattiq.
30.	Ahillik <i>va noahillik</i>	Harness, Pull together in double.	Qo'shaloq bo'lib hamjihatlikda ishlamoq.	Hamjihatlik-davlat, Yolg'izlik-kulfat
31.	G'urur <i>va xushomad</i>	Ka me and I'll ka thee.	Sen menga xushomad qil, men senga xushomad qilaman.	Sizdan ugina, bizdan bugina.
32.	Farosat <i>va farosatsizlik</i>	Be as good as a headache.	Bosh og'rig'iday yaxshi.	Befahmning dardi o'ziga yuk.

33.	<i>Sabab, bahona va natija</i>	Give as good as one gets.	Birov bergeniga yarasha bermoq.	Nima sochsang, shuni o'rasan.
34.	<i>Rizq-nasiba va benasibalik</i>	God send you joy, for sorrow will come fast enough.	Xudo sizga hursandchilik yuboradi, qayg'u bo'lsa tez orada yetib keladi.	Rizq ham azaliy, Yomon ham azaliy.
35.	<i>Naqd va nasiya</i>	The gentleman that pays the rent.	Ijara haqini to'laydigan jentlmen.	Nasiya yema go'shtni, Teshib chiqar to'shni.
36.	<i>Reja va rejasizlik</i>	Make hay while the sun shines.	Quyosh nur sochganda pichanni o'rib ol.	Kin ishini tun o'yla.
37.	<i>Foyda va zarar</i>	Give smth. up as a bad job.	Biron narsani befoyda deb tark etmoq.	Befoyda kundadan o'tin yaxshi.
38.	<i>Ma'siliyat va ma'siliyatsizlik</i>	To have many irons in the fire.	Olov ustiga ko'p temir qo'ymoq.	Ish buyurdim olti tozga, Olti toz qo'ydi yozga.
39.	<i>Taqdir va tadbir</i>	Have smb.'s fate in one's hand.	Birovning taqdirini qo'lida ushlarloq.	Taqdirim deb o'ylama, Qismat o'lchog'i qo'lida.
40.	<i>Vaqt va fursat qadri</i>	Time and tide wait for no man	Vaqt va suv to'lqini odamni poylamas.	Vaqt — g'animat, o'tsa — nadomat.

41.	<i>Imkon va imkonsizlik</i>	If you can't have the best, make the best of what you have.	Agarda yaxshisiga ega bo'lmasang, qo'lingda borini yaxshilab ishlat.	Bor — boricha, yo'q — holicha.
42.	<i>Farovonlik va yetishmovchilik</i>	Laws catch flies, but let hornets go free.	Qonunga pashsha tutiladi, qovoqarilar esa o'tib ketadi.	Holvani hokim yer, Kaltakni — yetim.
43.	<i>Ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik</i>	It's poor mouse that has only one hole.	Bittagina ini bor sichqon bechoradir.	Ehtiyoting bo'lsa, ehtiyojing bo'lmas.
44.	<i>Tozalik, sog'lik va bemorlik</i>	Good health is above wealth.	Yaxshi sog'lik boylikdan afzal.	Sog'lik bo'lsa, boylik kelar.
45.	<i>Dehqonchilik va chorvachilik</i>	To hit the nail on the head.	Mixning boshini poylab urmoq.	Ishbilarmon dehqonning ketmoni yerning tanobini uzar.
46.	<i>Sevinch va g'am</i>	The iron entered his soul.	Ruhiga temir kirgan.	Temirni zang yemirar, Odamni — g'am.
47.	<i>To'y va motam</i>	A Roman holiday.	Rimliklar bayrami [qadimgi Rimda bayramkuni gladiatorlar bir-birini o'ldirguncha kurashgan].	Kimga — to'y, kimga — aza.

48.	<i>Yoshlik</i> <i>qarilik</i>	<i>va</i>	An hour of pain is as long as a day of pleasure,	Jahlning bir soati hursandchilikning bir kunidek uzun.	Jahl bilan qartayasan, Kulgi bilan yasharasan.
49.	<i>Yo'l</i> <i>va yo'ldosh</i>		He should have a long spoon, that sups with the devil.	Shayton bilan ovqatlanishga o'tirganning uzun qoshig'i bo'lsin	Yo'rg'ali bilan yo'ldosh bolsang, yo'lda qolasan.
50.	<i>Hayvon</i> <i>va qushlar</i>		Beard the lion in his den.	Sherning soqdidan o'z uyasida ushlamoq.	Arslon bolasini tutmoq uchun, Arslon uyasiga kirmoq kerak.
51.	<i>Yil fasllari</i> <i>tabiat</i> <i>hodisalari</i>	<i>va</i>	March comes in like a lion and goes out like a lamb.	Mart oyining kelishi sherdek, ketishi esa quyondek.	Aziz momo olti kun, Qahri kelsa — yetti kun.
52.	<i>Faqirlik</i> <i>va boylik</i>		God help the poor, for the rich can help themselves.	Xudo kambag'alga yordam ber, boy o'ziga-o'zi yordam bera biladi.	Boyning ko'zi nonda, Kambag'alniki — imonda
53.	<i>Amaldorlar</i> <i>va</i> <i>avom vakillari</i>		God is always on the side of the big battalions.	Xudo doim katta qo'shin tarafida.	Bek gapirsa, bekniki ma'qul, Xon gapirsa — xonniki.

“O’zbek xalq maqollari” to’plamida 70 ga yaqin mavzu bo'yicha xalq maqollari keltirilishiga qaramasdan, biz asosan kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan va aslida mavzu jihatidan bir- biriga o'ta yaqin bo'lgan maqollarni bir mavzu doirasida olishga qaror qildik.

Jadvaldan ko'rib turganingizdek, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan barcha mavzularga oid maqollarning deyarli barchasi ingliz xalq maqollarida uchraydi. Fikrimizning isboti sifatida yuqorida o'zbek xalq maqollarida uchraydigan barcha mavzudagi maqollarning inglizcha yoki ingliz xalq maqollarida uchraydigan o'zbekcha maqollarning bir-biriga nisbatan ishlatiladigan muqobil variantini izlab, keltirib o'tishga harakat qildik.

Demak, o'zbek va ingliz xalq maqollarida mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash maqollarning ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Buning asosiy sababi shuki, barcha insoniyatga xos xislatlar hamma millatga xosligidadir. Biroq biz bu fikrlarimiz bilan o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar aynan bir xil qo'llanilish o'rniga ega degan fikrni keltirolmaymiz. Shunchaki biz ingliz va o'zbek maqollarida uchraydigan mavzularning har ikki tildagi maqollarda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab olmoqchimiz xolos.

Shu o'rinda maqollarni alohida tahlil qilsak, ulardag'i ma'no-mazmun barchasida ham bir xil emasligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ilmiy ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda maqollarning har ikkala tildagi variantlarini o'zaro tahlil qilib chiqmoqchi emasmiz. Muhimi ingliz tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar o'zbek tilida ham uchrashi yoki aksincha o'zbek tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar ingliz tilida ham uchrashi mumkin ekanligini isbotladik. Demak, ingliz va o'zbek maqollari ustida mavzu jihatidan olib borgan tadqiqotimizga ko'ra, o'zbek maqollarida uchraydigan barcha mavzularning ingliz tilidagi maqollarda ham uchratishimiz mumkin degan xulosaga kelamiz.

2.3. O’zbek va ingliz maqollarida mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi.

Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to’xtalar ekanmiz, millatlarning o’ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so’z ochmay ilojimiz yo’q, albatta. Chunki xalqning o’ziga xos madaniyati, tarixi va urf odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o’rinda turadi. Ilmiy ishimizning ushbu qismida ingliz va o’zbek tillaridagi ayrim maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, har ikkala xalqning o’ziga xos milliy urf-odatlari, kundalik turmush tarzidagi o’ziga xos milliy xarakterning ifodalanishi ko’rsatib beriladi. Asosan har ikki tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko’proq farqli tomonlarini o’rganib, o’zaro o’xshash tomonlarining umumiy jihatlarini kerakli manbalardan foydalangan holda ifodalashga harakat qilamiz.

Maqollar xalq ijodiyotining beba ho namunasi bo’lib, o’sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, “maqollar to’plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog’lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”. [29;171]

Turli tillarning maqollariga to’xtalar ekanmiz, ular o’sha til egasi bo’lmish xalqning tarixiy, ma’naviy va moddiy madaniyati ko’zgusi ekaniga guvoh bo’lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o’rganish millatning o’ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o’sha xalqning mentalitetini ko’rsatadi.

“**Mentalitet**” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko’p bo’lmanan bo’lsada, hozirda juda keng doirada qo’llanilmoqda. Tor ma’noda mentalitet “**fikrlash doirasi, dunyoqarash**” mazmunida foydalanilsa, keng ma’noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi” [14;59]

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “**xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir**”. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu “**milliy xarakter**” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq.

Ingliz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, ingliz xalqining xarakteri haqida so'z yuritmay ilojimiz yo'q. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari mag'rur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham ko'rindi:

Inglizcha: ***Better be the head of a dog than the tail of a lion.***

O'zbekcha tarjimasi: ***Arslonning dumi bo'lidan ko'ra itning boshi bo'lgan afzal.***

O'zbekcha varianti: ***Arslonning o'ligi — sichqonning tirigi.***

Inglizcha: ***Better go to heaven in rags than to hell in embroidery.***

O'zbekcha tarjimasi: ***Jahannamga kimhob kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal.***

O'zbekcha varianti: ***Boy bo'lib bezillaguncha,
Qul bo'lib qo'porib yur.***

Inglizcha: ***Better untaught than ill-taught.***

O'zbekcha tarjimasi: ***Chalasavoddan savodsiz afzal.***

O'zbekcha varianti: ***Chalasavod — chirik rabot.***

Inglizcha: ***Better die a beggar than live a beggar.***

O'zbekcha tarjimasi: ***Kambag'al bo'lib yashagandan kambag'al bo'lib o'lgan afzal.***

O'zbekcha varianti: ***Otliqning qamchisi ham,
Yayovning kaltagi ham,
Kambag'alning boshiga tegadi.***

Ko'ribturganingizdek ushbu inglizcha maqolning o'zbekcha tarjimasida kambag'al bo'lib yashash qoralanyapti. Ya'ni kambag'al bechora bo'lib yashash inson uchun uyatlari hol ekanligi aytilyapti. Biroq o'zbekcha variantida ma'no xuddi inglizcha variantidagidek deyolmaymiz. Bu yerda kambag'al, bechora har doim xo'rланishi haqida aytilyapti. Maqolning o'zbekcha variantidagi umumiyligi ma'nosida kambag'allik uyat yoki gunoh darajasida qoralanmagan.

Demak, o'ta darajada g'ururga berilish va hurmattalablik xislatlari o'zbek xalqiga nisbatan ingliz xalqida ko'proq ekanligi maqollarda ifodalangan.

Bu holatni esa o'zbek xalq maqollarida biroz boshqacharoq holda ko'rshimiz mumkin. Ya'ni o'zbek xalqi o'zgalarga hurmat ko'rsatish olivjanob fazilat ekanligini o'z maqollarida ifodalaydi.

- ***Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda.***
- ***Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.***

Shuningdek, inglizlarga xos yana bir jihat – bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga bo'lgan mehri ustunroq turishini maqollarda “bola” obrazidan ko'ra “it”, ayniqsa, “**mushuk**” obrazlari ko'proq qo'llanilishida kuzatamiz.

Masalan:

- ***Dog does not eat dog. - Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.***
- ***Barking dogs seldom bite. - Ko'p vovullagan it tishlamaydi.***
- ***When the cat is away, the mice will play.- Mushuk yo'q bo'lsa sichqon bayram qiladi.***
- ***A cat in gloves catches no mice. - Qo'lqopli mushuk sichqon tuta olmaydi.***

Ammo ayrim o'zbek maqollarida “it” va “**mushuk**” obrazlari ko'proq salbiy ma'noda, salbiy obrazda ishlatiladi. Masalan:

- ***It hurar karvon o'tar. - The dogs bark, but caravan goes on.***

- *Itlar bilan yotgan, bitlab turar. - Down with dogs must rise up with fleas, He that lies.*
- *Itni suyak bilan ursangiz, qopmas. - A dog will not howl if you beat him with a bone.*
- *Itdan suyak artmas, mushukdan – bez. - Two dogs over one bone seldom agree.*
- *Tanlay, tanlay tozga yo'liqdim, boshi piyoz kalga yo'liqdim.*

Scornful dogs will eat dirty puddings.

Ushbu maqollarda “it”obrazi ko’proq jahldor, yomon, iflos, poraxo’r, ochko’z, dimog’dor odamlarga qaratilgan holda gavdalanadi. Biroq yana ba’zi bir maqollar borki, bunda it obrazi vafodorlik, yaxshilik, donolik, sofdillik obrazlarida gavdalanadi.

- *Yaxshi itga- yaxshi suyak. - A good dog deserves a good bone.*
- *O’lik arslondan tirik it afzal. - A living dog is better than a dead lion.*
- *Qari it ko’p yo’l bilar. - An old dog barks not in vain.*

Biroq farzandlar, bolalar haqidagi maqollar o’zbek xalqining eng sevimli mavzularidan biridir. Chunki o’zbeklar bolajon xalq bo’lib, ona va bolaga bo’lgan e’tibor ahamiyatga molik:

- *Ona bilan bola – gul bilan lola.*
- *Bolali uy – bozor, bolasiz uy mozor.*
- *Bolamning bolasi – qandin o’rik donasi.*

Ona va bola haqidagi maqollardan nafaqat kundalik turmushda, balki yozuvchilarning asarlarida ham keltirishimiz mumkin. Misol sifatida mashhur

o'zbek yozuvchisi Tog'ay Murodning “**Otamdan qolgan dalalar**” asaridagi ona va bola mavzusiga oid maqolning asarda ishlatalish o'rmini ko'rib chiqamiz:

“-Qarg'ish urgan odamni peshonasi ana shunday bo'ladi.

*-Enani qarg'ishi bolaga urmaydi. Ena, enani qarg'ishi bolaga urmaydi.
Og'zingizni to'ldirib qarg'ay bering- baribir qarg'ishingiz menga o'tmaydi!*

Onamiz tovuqlar ko'z ko'riniib donlasin uchun –so'ri girdilatib don sochdi.

-Seni men emas-seni Xudo qarg'agan.

-Xudo qarg'agan? Eb-e, men xudoga nima yomonlik qildim-e? Xudo nima deb qarg'agan-e?

-Xudo, iloyim, shu o'zbak degichni topgani aziz mehmoniga buyursin,deb qarg'agan.”

Parchada keltirilgan maqol “*Enani qarg'ishi bolaga urmaydi*” shuni anglatadiki, farzand ona uchun qancha azob –uqubat keltirsa ham, ona hech qachon farzandini qarg'amaydi, qarg'asa ham u chin ko'ngildan bo'lmaydi. Bundan tashqari o'zbek xalqini qay daraja mehmondo'st ekani, u tabiatan shunday yaralgani parcha oxiridagi jumlada keltirilgan. Shuning uchun ham o'zbek xalq maqollaridagi mentalitet tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo'stlik to'g'risida eslamay ilojimiz yo'q. Maqollarimizda mehmonga bo'lган hurmat, bag'rikenglik yaqqol ko'riniib turadi. Misol uchun:

- *Mehmon – atoyi xudo.*
- *Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.*

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, “**qaynona**” va “**kelin**” obrazlari faqatgina o'zbek maqollariga xosdir. Ya'ni, ingliz xalq maqollariga nisbatan aynan o'zbek maqollarida bu mavzu ko'proq yoritiladi. Buning sababi o'zbek xalqi bu munosabatlarga ancha jiddiyroq yondashganidadir.

Masalan:

- *Kelin bo'ldim — qaynonamga yoqmadim, qaynona bo'l dim — kelinimga yoqmadim.*
- *Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.*

Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o'zbek maqollarida ko'proq uchraydi desak yanglishmaymiz. Chunki asrlar davomida ota bobolarimizdan kelayotgan bu kabi fazilatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Isbot uchun quyidagi maqollarni keltiramiz:

- *Andishaning oti qo'rqoq.*
- *Sharmsizlik – sharmandalik nishoni.*

O'zbek xalqi nonni juda e'zozlaydi va ingliz xalqiga nisbatan ko'proq iste'mol qiladi. O'zbek xalqining ayollari xamir qorib, tandir-tandir non yopadi. Kundalik turmushda bu holatning necha ming yillardan beri takrorlanib keladi. Buning ishtiroki o'zbek xalq maqollarida ko'p kuzatiladi.

- *Non mo'lligi — el to'qligi.*
- *Nonga hurmat – elga hurmat.*

Maqollardagi milliy koloritni ta'minlaydigan yana bir obraz – bu o'sha xalq taomlaridir. Isbot uchun:

Ingliz tilida:

- *Every cook praises his own broth - Har bir oshpaz o'z sho'rvasini maqtaydi.*
- *Too many cooks spoil the broth - Oshpaz ko'p bo'lsa, sho'rva buziladi.*

O'zbek tilida:

- *Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.*

- *Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye,*

Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye.

Ko'rib turganingizdek o'zbek xalqining eng sevimli milliy taomlaridan biri bo'l mish “**palov**” maqollarda o'z ishtirokini topa olgan. Sababi bu taom o'zbek xalqi tomonidan eng sevib iste'mol qilinadigan tomlar sirasiga kirishidadir. Ingliz xalq maqollarida “**soup**” ya'ni “**sho'rva**” ko'proq ishlatiladi. Bu taom ingliz xalqining sevimli oshi demoqchimasiz, faqat kundalik hayotda ko'proq iste'mol qilinishi sababli maqollar tarkibida uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagи obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

Ikkinchи bob bo'yicha xulosa.

O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bo'qliq ekanligi juda muhimdir. Ushbu bobda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lган barcha o'zbek va ingliz millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rasatib bera oladi.

O'zbek va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lган maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida ham

uchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xhash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Xullas, ingliz va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir.

Har ikki tildagi maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi. Oila va qarindosh urug'chilik munosabatlariga jiddiy qaralishi o'zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavdalananadi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida uchraydi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu ikki xalqning o'zaro o'xhash va farqli jihatlarini o'rgana olamiz.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarningning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o'zbek xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o'zbek maqollardagi mavzular o'xhash bo'lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

UCHINCHI BOB

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1. Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarining semantik tahlili.

Maqollar ustida qaysi tilda ish olib borilishidan qat'iy nazar ularning semantik xususiyatlariga to'xtalish ishning eng muhim qirralarini ohib berishga yordam beradi.Ko'pincha qiyosiy tilshunoslikda ikki tilda mavjud terminlarning ma'nolarini tahlil qilish va bu borada tildagi mavjud leksemalarning yangi qirralarini kashf etish muhimdir.

Ilmiy ishimizning uchinchi bobida o'zbek va ingliz maqollarining semantik xususiyatlariga ko'proq to'xtalamiz. Ushbu bobda ayrim ingliz va o'zbek maqollarining semantik tahlillarini qilgan holda, maqollarning har ikkala tildagi o'xhash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz. Bu orqali o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning har ikki tildagi semantik jihatdan ishlatalish o'rnni o'rganamiz.

Maqollarning semantik doirasi juda keng bo'lgani uchun ham jamiyatning har bir sohasida qo'llashimiz mumkin. Bu borada ingliz va o'zbek xalq maqollari ma'no jihatdan ham, qo'llash jihatdan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarni hajm jihatidan o'rganib borish asnosida aynan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko'proq uchrashiga guvoh bo'ldik. Buning sababini turlicha keltirishimiz mumkin.Masalan, mehnat qilib obro' topish, o'z ehtiyojlariningni qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o'z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lismi kabi masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va ingliz maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, hamisha mehnatsevarlik ijobiylar holanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Shu bois ushbu bobimizning birinchi

qismida ayrim mehnat va mehnatsevarlik haqidagi o’zbek va ingliz maqollarining semantik xususiyatlarini badiiy asarlardan foydalangan holda ko’rib, qiyoslab va tahlil qilishga harakat qilamiz. Quyida ushbu mavzuga oid ayrim ingliz maqollarining o’zbek tilidagi ma’nolari va muqobil variantlarini ko’rib chiqamiz.

Labour-Mehnat

№	Inglizcha maqol	O’zbekcha ma’nosi	O’zbekcha ekvivalenti
1.	A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds.	Ishlamasdan so’zlovchi odam o’t bosgan bog’ga o’xshar.	Ish bilsang tuzarsan, Bilmasang buzarsan.
2.	All is over bar (but) the shouting.	Bari ortda qoldi, vaqt shodlikka yetdi.	Mehnat qancha o’g’ir bo’lsa, Keti shuncha shirin bo’ladi.
3.	Actions speak louder than words.	So’zlardan ishlarning salmog’i baland.	Gap bilguncha – ish bil.
4.	Head cook and bottle-washer.	Ham bosh oshpaz,ham tovoq yuvuvchi.	Bir yigitga yetmish ikki hunar oz.
5.	Handsome is that handsome does.	Ishi go’zal odam,o’zi ham go’zaldir.	Ishing bo’lsa sharofat, Hech ko’rmaysan kasofat.
6.	He that will not work shall not eat.	Ishlamagan yemaydi.	Ishlamagantishlamas, Ishyoqmasga kun kulmas.
7.	Never put off till tomorrow what may be done today.	Bugun qila oladigan ishni hech qachon ertaga qoldirma.	Bugungi ishni ertaga qo’yma.

8.	Speak less but do more.	Ko'p gapirma, ko'p ishla.	Qo'ling ishda,ko'ngling Allohda bo'lzin.
9.	The workman is known by his work.	Usta ishi bilan mashhur.	Usta,ishni qilar yuzta.
10.	The labourer is worthy of his hire.	Ishlagan ish haqiga loyiqdir.	Ishlab topganing –osh, Ishlamay topganing-tosh.

Ko'rib turganingizdek mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va ingliz tillarida mavjudligi har ikkala xalqning o'ta mehnatsevar va ishchan ekanligini ko'rsatadi. Shu bois qayd etgan barcha maqollarimiz xalqlarning turmush tarzida o'ta keng ko'lamda foydalanimuvchi mavzulardan biridir. Shu o'rinda ularning semantik doirasi haqida so'zlasak ham huddi bir xil narsani ya'ni maqollarning qo'llash ma'nosi aynan bir xil ekanligini tushuna olamiz.

Masalan: “**A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds**” maqolini o'zbek tiliga tarjima qilganda “**Ishlamasdan so'zlovchi odam o't bosgan bog'ga o'xshar**” ma'nosini beradi. Bu maqol orqali biz o'ta ish yoqmas, dangasa biroq juda so'zamol kishilarni tasvirlaymiz. Ammo biz inglizcha maqolning o'zbekchadagi tarjimasini yoki ma'nosini har doim ham o'zbek tiliga tayyor holda ishlatolmaymiz. Buning juda chiroyli va muqobil varianti sifatida “**Ish bilsang tuzarsan, bilmasang buzarsan**”ni keltirishimiz mumkin. O'zbek tilida bu maqolga ekvivalent sifatida “**Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar**” maqolidan ham foydalansak bo'ladi.

Fikrimizning yana bir isboti sifatida inglizcha “**Head cook and bottle-washer**” maqolini ko'rib chiqsak. Maqolning o'zbekchadagi tarjiması “**Ham bosh oshpaz, ham tovoq yuvuvchi**”. Maqolning ma'nosi shuki, bir odam bir nechta ish bilan shug'ullanadi, yoki bir vaqtning o'zida bir nechta kasb egasidir. Bir qarashda maqol tarbiyaviy ahamiyatga ega va mehnat qilishga undovchi jihatlarni ko'rsatadi. Ammo o'zbekchadagi tarjima har doim ham maqolning aslini saqlab

qolmasligi mumkin. Va biz buni har doim og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham tilga tayyor holda faol ishlatolmaymiz. Maqoldan kelib chiqayotgan ma'no har doim ham uni tashkil etayotgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazliligi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda maqollardagi obrazlilikning kuchliligi bir maqolni har ikkala tilda bir xil talqin etilishiga olib keladi. Qadim-qadimdan beri ishlatilib kelinayotgan bu maqolning o'zbekcha ekvivalenti sifatida "**Bir yigitga yetmish ikki hunar oz**" ni keltirishimiz mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, maqol bugungi kunda ham har ikkala xalq orasida juda faol hisoblanadi. Buni nafaqat kundalik turmushimizda ishlatishimiz balki badiiy asarlardagi chiroyli ishtirokini ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan: "E-ha, uka, usta akang, oyog'ida g'irch-g'irch xrom etik, egnida ofitserlar kiyadigan sherst gimnastyorka, mototsiklni minib, Berlin ko'chalaridan o'tgan. Xa!..

Ammo lekin, uka, buning hammasi hunar orqasida bo'ldi. Hunar bo'lmasa, bunaqa soqolu bunaqa izzat-ikrom qayoqda. Ha, ota- bobolarimiz: "**Bir yigitga yetmish ikki hunar oz**", deb bekor aytishmagan ekan. [40;231]

Asardan keltirilgan ushbu parchadagi maqol "**Bir yigitga yetmish ikki hunar oz**" orqali butun o'zbek er-yigitlarini mard, jasur, epchil, ishbilarmon va mehnatsevar ekanligi kitobxonga lo'nda va juda tushunarli qilib tasvirlangan. Ushbu maqol ingliz xalq maqollari sirasiga kirishi ingliz xalqining xuddi o'zbek xalqi singari mehnatsevar ekanligidan dalolat beradi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, maqollardagi pand-nasihat ohangidagi xususiyatlar insonga hamisha to'gri yo'l ko'rsatadi va yomon oqibatlardan ogohlantiradi.

Masalan:

"The labourer is worthy of his hire" maqolini tahlil qiladigan bo'lsak, u o'zbekcha muqobil variant sifatida:

Ishlab topganing –osh,

Ishlamay topganing-tosh.

maqoliga to'g'ri keladi. Maqolning har ikkala tildagi umumiyl ma'nosini shuki, qattiq mehnat qilib erishilgan narsa har doim qadrli, xuddi yeyayotgan shirin oshingdek,

biroq mehnat qilmay yengil yo'llar bilan topilgan narsa harom va insonga hech qachon yuqmasligi ifodalangan. Qisqacha qilib bayon etadigan bo'lsak, ishlagan ish haqiga loyiqdir.

Ilmiy ishimizning ilk bobida mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning maqollar va xalq mentalitetini ifodalovchi mashhur "**Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman**", degan edi. Darhaqiqat, o'zbek va ingliz xalq maqollari tarkibida mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning mavjudligi yozuvchi keltirgan fikrning isboti bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik doimo ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Aynan biz ko'rib, o'rganib, tahlil qilib chiqqan maqollarda ham ushbu holatni ko'rishimiz mumkin. Ingliz maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqr o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin. Xalq og'zaki ijodining sara namunalari hisoblanmish maqollar qaysi tilda yangrashidan qat'iy nazar, agar ularning ma'no mohiyati insonlar tomonidan chuqr anglab yetilsa, insonlarga hamisha to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi yo'lboshchi sifatida xizmat qilaveradi.

3.2. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid bo’lgan o’zbek va ingliz tillaridagi maqollarning o’zaro o’xhash va farqli jihatlari.

Ilmiy ishimizning ushbu bobি o’zbek va ingliz maqollarining semantik xususiyatlariga bag’ishlanganligi bois, ingliz va o’zbek xalq maqollarining semantik jihatdan bir-biriga o’xhash va farqli jihatlarini topish dissertatsiyamizning ushbu bobini yanada takomollashtirishga yordam beradi. Shu bois ingliz va o’zbek xalq maqollari tarkibida hajm jihatidan ko’p va kundalik hayotda faol ishlatiluvchi maqollarning semantikasiga to’xtalib o’tamiz.

Ushbu qismda ingliz va o’zbek maqollarida eng ko’p uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ayrim maqollarning ingliz va o’zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi o’xhash va farqli jihatlarini ko’rib chiqamiz.

Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya’ni bir-biriga qarama- qarshi jihatlari orqali bilamiz. Bular ichida eng ko’p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda bularni ijobjiy bo’yoqdor so’zlar va salbiy bo’yoqdor so’zlarga ajratamiz. Yaxshilik va yomonlik leksemalarining maqollarda keng ko’lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko’rsatuvchi hodisadir. Shu o’rinda ingliz va o’zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo’lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi. Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o’zbek va ingliz maqollarining semantik tahlillarini keltirib o’tamiz. Quyida tahlil qilmoqchi bo’lgan yaxshilik va yomonlik mavzusidagi o’zbek va ingliz xalq maqollarini asosiy manba sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “ Proverbs. Maqollar. Пословицы” deb nomlangan kitobidan keltiramiz.

Inglizcha maqol : *A bad excuse is better than none*

O’zbekcha variant: *Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,*

Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Maqolning inglizcha variantini o’zbek tiliga tarjima qilsak, umuman kechirim so’ramagandan ko’ra kech bo’lsa ham kechirim so’ragan ma’qul degan tarjimani beradi. Maqol bir qarashda o’zbekcha “***Hechdan ko’ra kech yaxshi***” maqolini esga tushirishi mumkin. Ammo maqolning har ikkala tildagi variantini chuqrur tahlil qilib chiqadigan bo’lsak, “***Hechdan ko’ra kech yaxshi***” muqobil variant bo’lolmasligiga amin bo’lamiz. Negaki “***A bad excuse is better than none***” maqoli ingliz xalqi tomonidan insonni kechirimli bo’lishga, har qanday sharoitda ham insonlar orasida yaxshi xulq-atvorli bo’lish kerakligiga o’rgatadi. Inson yaxshilik bilan, shirin so’zlilik orqali ko’plab yutuqlarga erishishi va hayotini bir tekisda olib borishi mumkinligi ayiladi. Maqolning o’zbekcha variantida keltirgan fikrlarimizning yanada ta’sirchan qilib ifodalanganini ko’ramiz. Ya’ni:

***“Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,
Yomon gap bilan musulmon dinidan”***

maqoli orqali o’zbek xalqi insonni hamisha shirinso’z bo’lishi kerakligini uqtiradi. Maqolda ishlatalgan “***ilon***” obrazi qanchalik xavfli hayvon ekanligi barchaga ma’lum. Aslida bu obraz tagida salbiy xususiyatli insonlar qo’shtirnoq ichiga olinadi. Ya’ni har qanday yomon, razil, zahar insonlar ham yaxshi gapga kirishi mumkinligi xalq tajribasidan kelib chiqqan holda maqolda o’z aksini topadi.

Demak, keltirib o’tgan maqolimizning har ikki tildagi variantlari bir xil ma’no-mazmunga ega. Bu jihatdan o’zbek va ingliz xalqining insonlar orasidagi muloqotda g’oyatda shirin so’z bo’lish kerakligi insonlarga xos xususiyatlardan biri ekanligini ko’rsatadi.

O’zbek va ingliz xalq maqollari sirasiga kiruvchi maqollardan:
Inglizcha: ***A bad beginning makes a bad ending***

O’zbekcha: ***Yomonchilik bo’lganda, qor ustiga muz yog’ar.***

Inglizcha: ***A good beginning makes a good ending.***

O’zbekcha: ***Yaxshi yil — bahoridan,***

Yomon kun — saharidan ma’lum.

eng ommabop maqollar sirasiga kiradi. Biror ishning natijasi qanday bo'lishi, uning qanday boshlanishiga bog'liq ekanligi maqollarda ham o'z aksini topa olgan. Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon- atrofimizdagilarni bunga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bunga qo'shimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib o'tsak bo'ladi.

Inglizcha: ***In every beginning think of the end.***

O'zbekcha: ***Yaxshi yerga yotsang,***

Yaxshi tush ko'rasan.

Yomon yerga yotsang,

Yomon tush ko'rasan.

Demak, har bir boshlamoqchi bo'lgan ishimizning yakuni uni qanday boshlashimizga bo'g'liq ekanligi yuqorida keltirib o'tgan maqollarimizda ifodalangan. Ushbu maqollarning tahlilidan kelib chiqib, har ikki tildagi variant bir xil ma'no- mazmun anglatayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek va ingliz tillaridagi maqollarda o'zining g'oyat mazmunga boy ekanligi bilan ajralib turuvchi maqollardan yana biri "***Every cloud has a silver lining***" va maqolning o'zbekcha varianti qilib:

"Har yaxshida bir "ammo" bor,

Har yomonda — bir "lekin" olingen.

Inglizcha keltirilgan "***Every cloud has a silver lining***" aslida o'zbek tiliga – "***Har bir bulutning kumush hoshiyasi bor***"- deb tarjima qilinadi. Keltirilgan tarjima orqali biror ibratli fikrni darxol anglab olish biroz qiyin. Inglizchadan o'zbekchaga qilingan tarjimada maqol oddiy bir gapdek bo'lib qolgan. Agar berilgan tarjimani mazmunan tahlil qiladigan bo'lsak, bulutning kumush hoshiyaga ega ekanligi aslida yomg'irning yog'ishi bilan baholanadi. Bir qarashda maqolda ishlatilgan so'zlar "***cloud***"- "***bulut***" yoki "***silver***"- "***kumush***" hech qanday salbiy

ma'noga ega emas. Biroq maqolning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, havoning bulutli bo'lishi salbiy holatni ifodalasa, bulut bo'lib yer-u zaminga yomg'ir yog'ishi va bu orqali xalqqa risq-nasiba kelishi ijobi hodisa sifatida baholanadi.Ko'chma ma'noda ifodalangan bulutning kumush hoshiyasi-yomg'ir yo'gib,elga rizq ulashishi,tabiatni musaffo qilishi va ba'zan insonlar qalbidagi g'uborni yuvishi bilan baholangan.

Endi maqolning o'zbekcha muqobil varianti bilan tanishib chiqsak. O'zbekcha varianti qilib "**Har yaxshida bir "ammo" bor, Har yomonda — bir "lekin"**" keltirilgan. Maqolning ma'nosi shuni anglatadiki, inson hech qachon butunlay yomon yoki butunlay yaxshi bo'lolmaydi. Har bir yomon deb qaralgan shaxs yoki narsa-buyumning ham o'ziga yarasha yaxshi tomonlari va har bir yaxshining o'ziga xos yomon jihatlari bo'lishi mumkin. Shu bugungi kungacha o'zbek xalq maqollari orasida xalq tomonidan faol tarzda ishlatilib kelinayotgan ushbu maqol o'zbeklar uchun aynan yuqorida keltirgan vaziyatimizda ishlatiladi. O'zbek xalqi qadim-qadimdan shu narsaga alohida e'tibor beradiki, biror shaxs yoki narsani mutlaqo qoralab bo'lmaydi va shu o'rinda mutlaqo yaxshi deb bo'lmaydi. Maqolning umumiy mazmuni shundan iboratki, har narsada faqat yaxshilikka erishish. Yomonni yomon deb umuman qatordan chiqarib tashlamaslik, yoki yaxshini juda yaxshi deb kibrga berib yubormaslik. Inson kibrga berilganda,o'zi bilmagan holda yomon bo'lib qolishi mumkindir.

Demak, keltirb o'tgan maqolimizning har ikkala tildagi variantini bir xil ma'no- mohiyatga ega deb hisoblasak bo'ladi. Umuman, ishlatilish o'rniga ko'ra semantik jihatdan deyarli bir xil ma'noga ega.

Shu o'rinda, aynan yaxshilik va yomonlik leksemalari bilan ifodalanmagan bo'lsa ham, mazmun jihatidan shu mavzuga aloqador yana bir nechta maqollarni keltirishimiz mumkin.

Inglizcha: *After rain comes sunshine.*

O'zbekcha tarjimasi: *Yomg'irdan keyin quyosh chiqadi.*

O'zbekcha ekvivalenti: *Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa,*
O'n beshi yorug' bo'ladi.

Inglizcha: *The evening crowns the day.*

O'zbekcha tarjimasi: *Oqshom kunduzning toji.*

O'zbekcha ekvivalenti: *Har kechaning — kunduzi,*

Har kunduzning kechasi bor.

Ushbu maqollar orqali xalq o'z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo'lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo'lavermasligini ifodalaydi. “*Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi*” va “*Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor*” maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchlik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, maqollar bu xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo'lган munosabatini qay daraja baholashining natijasidir. Quyida keltiradigan maqollarimiz orqali o'zbek va ingliz xalqining yaxshilik va yomonlikka nisbatan bergen baholarini yanada aniqroq tushunib olish maqsadida quydagi maqollarni ham ko'rib chiqamiz.

Inglizcha: *Give a dog a bad name and hang him.*

O'zbekcha tarjimasi: *Itga yomon nom bergin-u, osgin.*

O'zbekcha ekvivalenti: *Yomon atalib tirik yurguncha,*

Yaxshi atalib o'lgan yaxshi.

Inglizcha: *He that lies down with dogs must rise up with fleas.*

O'zbekcha tarjimasi: *Itlar bilan yotgan, bitlab turar.*

O'zbekcha ekvivalenti: *Yaxshiga yondashsang, yetarsan murodga,*

Yomonga yondashsang, qolarsan uyatga.

Inglizcha: *A good dog deserves a good bone.*

O'zbekcha tarjimasi: *Yaxshi itga — yaxshi suyak.*

O'zbekcha ekvivalenti: *Yaxshiga ipak ilashur,*

Yomonga tikan ilashur.

Ko'rib turganingizdek yaxshilik va yomonlik haqidagi ushbu maqollarning har uchalasining inglizcha variantida “***dog***” ya’ni “***it***” obrazi keltirilgan. Aslida “***it***” obrazining tagida inson va unga xos jihatlar ifodalangan. Ushbu “***it***” obrazi ifodalangan inglizcha maqollarning o’zbekcha variantlarida aynan “***it***” obrazi gavdalanmagan bo’lsada, baribir ma’no- mazmun bir xil. Har ikkilasida ham maqol hayvonga qarata emas, balki insonga qarata aytilgan.Ya’ni, yaxshi inson bo’lib el-u yurtga yaxshilik qilib yurish eng oliv fazilat hisoblansa, aksincha yomon, razil inson bo’lib xalqqa yomonligi qilib yurgandan ko’ra o’lgan yaxshi deb qaraladi.

Qadimdan ota-bobolarimizdan kelayotgan nasihatlarga ko’ra yaxshilik hamisha insonni ezgulikka yetaklaydi. Ezgulik bor joyda tinchlik-totuvlik, sihat-salomatlik va farovon hayot bo’ladi. Yaxshlik qilish va ezgulikka intilish xalq maqollarida alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Inglizcha: ***Look on the bright side.***

O’zbekcha tarjimasi: ***Yorug’ tarafga qara.***

O’zbekcha ekvivalenti: ***Yaxshi niyat — yorti mol.***

Inglizcha: ***Virtue never grows old.***

O’zbekcha tarjimasi: ***Ezgulik sira qarimas.***

O’zbekcha ekvivalenti: ***Ezgulikning kechi yo'q.***

Inglizcha: ***It is a good horse that never stumbles.***

O’zbekcha tarjimasi: ***Hech qoqlmaydigan ot yaxshidir.***

O’zbekcha tarjimasi: ***Otning yaxshisi tizidan ma'lum,***

Odamning yaxshisi — so'zidan.

Lekin bu bilan biz o’zbek va ingliz maqollarida faqat ezgulik va yaxshilik tushunchalari keng ifodalangan deyolmaymiz. Yomonlik va yomon inson bo’lishning salbiy oqibatlari haqida ham maqollar mavjud. Ular quyidagicha:

Inglizcha: ***Make the worst of both worlds.***

O’zbekcha tarjimasi: ***Ikkala dunyoning ham eng yomon ishini qilmoq.***

O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Yomon bilan talashsang, qadring ketar.</i>
Inglizcha:	<i>Hope for the best and prepare for the worst.</i>
O'zbekcha tarjimasi:	<i>Yaxshilikka umid bog'la va yomonlikka tayyor bo'l.</i>
O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Yaxshilik — yog'och boshida,</i> <i>Yomonlik oyoq ostida.</i>
Inglizcha:	<i>One fool makes many.</i>
O'zbekcha tarjimasi:	<i>Bir ahmoq ko'plarini yaratadi.</i>
O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Qozonga yondoshsang, qorasi yuqar,</i> <i>Yomonga yondoshsang, yarasi yuqar.</i>

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo'lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo'qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g'alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Buni quyida keltirajak ingliz va o'zbek xalq maqollari misolida berib o'tamiz.

Inglizcha:	<i>Wrong never comes right.</i>
O'zbekcha tarjimasi:	<i>Yomonlik sira yaxshilik keltirmas.</i>
O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Yomonlik qilganga yaxshilik qil.</i>
Inglizcha:	<i>Set good against evil.</i>
O'zbekcha tarjimasi:	<i>Yomonlikka yaxshilik qil.</i>
O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir,</i> <i>Yomonlikka yomonlik har kishining ishidir.</i>
Inglizcha:	<i>One good turn deserves another.</i>
O'zbekcha tarjimasi:	<i>Bir yaxshilik o'zga yaxshilikni keltiradi.</i>
O'zbekcha ekvivalenti:	<i>Yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar,</i> <i>Yomonlik qilsang — yomonlik.</i>

O'zbek va ingliz tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib chiqishga harakat qildik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanimagan. Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi.

Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir ingliz va o'zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi.

Xullas, yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid o'zbek va ingliz xalq maqollari semantik jihatdan deyarli bir-xil ma'no anglatadi.

3.3. Inson xususiyatlarini ko'rsatuvchi hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o'zbek maqollarining tahlili.

Xalq maqollarida eng ko'p uchraydigan obrazlardan biri-hayvonot olami, ya'ni hayvonlarning maqollarda ishtirokidir. Hayvon obrazlarining maqollarda keltirilishi nafaqat maqollardagi obrazlilikning kuchaytirilishi, balki ularning yanada ta'sirchan bo'lishiga asos bo'ladi.

Barcha millatlarning maqollari singari o'zbek va ingliz xalq maqollari ham hayvon obrazlarining keltirilishi bilan alohida ajralib turadi. Dissertatsiyamizning ushbu qismida hayvon obarazlari qatnashgan bir nechta o'zbek va ingliz maqollarining semantik tahlillarini keltirib o'tamiz.

Ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadi ingliz va o'zbek maqollarida hayvon obrazlarining ishlatalish o'rmini chuqur o'rganib chiqib, har ikkala tildagi o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishdir.

Ingliz va o'zbek maqollari ustida bugungi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan hayvon obrazlari qatnashgan maqollar ingliz va o'zbek xalq maqollarining katta ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Asosan *horse-ot, lion-sher, fox-tulki, wolf-bo'ri, bear-ayiq, bird-qush, cow-sigir, ass-eshak, dog-it, cat-mushuk, fly-pashsha, goose-g'oz, hen-tovuq, duck-o'rdak* kabi so'zlar maqollar tarkibida juda faol qatnashadi.

Maqollar tarkibida hayvon obrazlarini keltirish orqali insonga xos xususiyatlar ifodalanadi. Ya'ni maqollarda keltirilgan ibratli fikrlar aynan maqolda keltirilgan hayvonga qarata emas, balki insonlarga qarata aytildi. Ko'pincha hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shunday xarakterli insonlarga kinoya qilinadi, tanqid ostiga olinadi yoki maqtaladi.

Ingliz va o'zbek tillarida hayvon obrazlari qatnashgan maqollar ko'pincha odamning fazilatlarini, xislat va xususiyatlarini tasvirlab keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik maqollar insonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini

tavsiflaydi. Anashu ijobiy va salbiy tavsiflar ostida barcha insonga xos yaxshi va yomon xususiyatlar gavdalananadi:

a) ijobiy tavsif:

- *Almost never killed a fly - Mushugiga ham pisht demaydi.*
- *Every bird likes its own nest - O'rgimchak ham o'z uyim der.*
- *Every dog has his day - Omadi kelsa, sichqon filni yengadi.*

b) salbiy tavsif:

- *Fish in the air - Behuda harakat beburd qilar.*
- *All asses wag their ears - Ahmoq aql o'rgatar.*
- *All are not thieves that dogs bark at. - It hurishi — gumon tug'ishi.*
- *The cat the way to the kirk Jeach.*

Tulkiga rahm qilsang,

Tovug'ingdan ajraysan.

Demak, biz hayvon nomli maqollar ingliz hamda o'zbek tillarida barcha ijobiy va salbiy xususiyatlarini, fazilatlarini va ruhiy kechinmalarini ifodalay oladi deyishimiz mumkin.

Ishimizning ushbu qismini yanada jlonlantirish va hayvon nomli ingliz va o'zbek maqollarining semantik xususiyatlarini aniqroq ifodalash maqsadida amaliy tadqiqotimizni jamlab quyidagi jadvalda bermoqchimiz. Tahlil qilinadigan barcha maqollar K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” deb nomlangan kitobidan keltiriladi.

№	Inglizcha maqol	O'zbekcha tarjimasi	O'zbekcha varianti	Umumiy ma'nosi	Ijo- biy	Sal- biy	Neyt
1	All is <i>fish</i> that comes to his net.	Nimaiki ilinsa to'riga baliq bo'lib ko'rinar ko'ziga.	<i>Tovuqning</i> tushiga don kirar.	Manfaat			+

2	Fish begins to stink at the head.	Baliq boshidan sasiy boshlaydi.	<i>Baliq</i> boshidan chiriydi.	Yomon boshqaruv		+	
3	The great fish eat up the small.	Katta baliq kichigini yeysi.	Zo'rga ham zo'rdek balobor.	Yomon-lik		+	
4	Birds of a feather flock together.	Bir balandlikda parvoz qiladi-gan qushlar galaga to'plani-shadi.	Har <i>qush</i> o'z to'pi bilan.	Birdam-lik	+		
5	Old birds are not to be caught with chaff.	Qari qushni tuzoq bilan tutib [aldab] bo'lmas.	To'rga tush-gan <i>baliq</i> qarmoqdan qo'rmas.	Epchillik		+	
6	Like water off a duck's back.	Suv o'rdakning patidan sirg'alib tushganidek.	Dunyon suv bossa, <i>o'rdakka</i> nima gam.	Bepar-volik	+		
7	Kill the goose that laid the golden eggs.	Oltin tuxum qo'yadigan g'ozni o'ldirmoq.	O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma.	Rizq-nasiba	+		
8	All cats love fish but fear to wet their paws.	Mushuk baliqni xush ko'rар, ammo oyog'ini ho'llashdan qo'rqar.	<i>Baliqni</i> xush ko'rgan, qiltanog'idan qo'rmas.	Maqsad sari ildam qadam.	+		

	When the <i>cat's</i> away, the <i>mice</i> will play.	Mushuk ketsa, sichqon o'yinga tushadi.	<i>Mushuk</i> nning o'lgani— sichqonga to'y.	Ozodlik			+
10	<i>Rats</i> desert a sinking ship.	Kalamushlar cho'kayotgan kemadan qochadi.	Xoin xavfli bo'ladi.	Xoinlik		+	
11	The <i>dogs</i> bark, but caravan goes on.	Itlar hurar, karvon esa o'tar.	<i>It</i> hurar — karvon o'tar.	E'tibor- sizlik			+
12	Better be the head of <i>a</i> <i>dog</i> than the tail of <i>a lion</i> .	Arslonning dumi bo'lgan- dan ko'ra itning boshi bo'lgan afzal.	<i>Arslonning</i> o'ligi- <i>sichqonning</i> tirigi.	G'urur	+		
13	Barking <i>dogs</i> seldom bite.	Huradigan itlar kamdan-kam qopadi.	Qopag'on <i>it</i> tishini ko'rsatmas.	Qo'rqoq- lik		+	
14	Let sleeping <i>dogs</i> lie.	Uxlab yotgan kuchuklarni uyg'otmang.	Yotgan <i>ilonning</i> quyrug'ini bosma.	Beparvo- lik			+
15	An old <i>dog</i> barks not in vain.	Qari it bekorga hurimaydi.	Qari <i>it</i> ko'p yo'l bilar.	Tajribali- lik	+		

16	At open doors dogs come in.	Ochiq eshikka itlar kirar.	Hushyorni yov bosmas, Yov bossa ham, dov bosmas.	Hushyor-lik			+
17	Catch the bear before you sell his skin.	Ayiqning terisini sotishdan oldin,o'zini tutgin.	Ot kimniki —mingan-niki,To'n kimniki —kiyganniki.	Sabr-toqat	+		
18	When the fox preaches, then beware your geese .	Tulki nasihat qila boshlaganda, g'ozlaringizni qo'riqlang.	Tulkining hiylasi ko'p, yaxshisi —qochmoq.	Makr-hiyla		+	
19	It is a good horse that never stumbles.	Hech qoqilmaydigan ot yaxshidir.	Otning yaxshisi tizidan ma'lum, Odamning yaxshisi —so'zidan	Yaxshilik	+		
20	An ass in a lion's skin.	Sher terisidagi eshak.	Kalla boshqa, salla boshqa.	Maqtan-choqlik		+	
21	An ass between two bundles of hay.	Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak.	Ikki quyonning ketidan quvgan,	Ochko'z-lik		+	

			Ikkalasidan ham quruq qolar.			
22	Beard the <i>lion</i> in his den.	Sherning soqdidan o'z uyasida ushlamoq.	<i>Arslon</i> bola- sini tutmoq uchun, <i>Arslon</i> uya- siga kirmoq kerak.	Botirlik	+	

Jadvalda ko'rib turganingizdek ko'plab hayvon nomlari ishlatilgan maqollar ingliz va o'zbek xalq maqollarida uchraydi. Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, “it”, “mushuk”, “baliq” obrazlari ingliz va o'zbek xalq maqollarida nisbatan ko'proq uchraydi. Hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o'zbek maqollarining ko'pchiligi semantik jihatdan bir xil ma'noni anglatadi. Lekin bu bilan barchasida ham bir xil fikr ifodalangan deya olmaymiz. Masalan: “*The great fish eat up the small*” maqoli o'zbekchada “*Katta baliq kichigini yeydi*” tarjimasini beradi. Bu orqali zolim, ochko'z boylar hamisha bechora, kambag'al odamlarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi haqida so'z boradi. Maqolning o'zbekcha “*Zo'rga ham zo'rdek balo bor*” variantida yovuz insonlar qanchalik yovuz bo'lmasin ularga ham jazo tayin ekanligi ifodalanadi.

Demak, maqolning inglizcha variantida zo'r insonlarning bechora va zaiflar ustidan doimiy hukmronligi aytilsa, o'zbekcha variantida zo'rilar va boylarning ham o'ziga yarasha tashvishi borligi ifodalanadi. Ushbu tahlil qilgan maqolimiz har ikkala tilda ma'no jihatidan bir-biriga teng bo'lolmaydi.

Hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o'zbek xalq maqollarining har ikkala tildagi variantlarida hamma vaqt ham bir xil hayvonlar ifodalanmasligi mumkin.

Masalan:

Inglizcha: *Let sleeping dogs lie.*

O’zbekcha tarjimasi: *Uxlab yotgan kuchuklarni uyg’otmang.*

O’zbekcha ekvivalenti: *Yotgan ilonning quyrug’ini bosma.*

Maqolning inglizcha variantida “**dog**” ya’ni “**it**” ishlatilgan bo’lsa, o’zbekcha variantida “**ilon**” obrazidan foydalanilgan. Ammo bu bilan maqolning o’zbekcha yoki inglizchadagi ma’nosи o’zgarib qolmaydi. Umumiy ma’noda e’tiborsizlik, ehtiyotsizlik ifodalangan.

Keltirib o’tgan maqollarimizning tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- ingliz va o’zbek xalq maqollarining ko’pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo’lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir;
- hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;
- hayvon obrazlari keltirilgan ingliz tilidagi maqollarning o’zbekcha muqobil variantlarida aynan bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma’nosiga ta’sir ko’rsatmaydi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa.

Ingliz va o’zbek maqollarining semantik xususiyatlarini o’rganish jarayonida, ayrim mavzudagi maqollarning o’zaro o’xshash va farqli jihatlarini ko’rib chiqdik. Uchinchi bobda har ikkala tildagi eng faol mavzudagi maqollarning tahlillarini qilgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

- Ingliz maqollarini o’zbek tiliga yoki o’zbek maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma’no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma’no-mazmunini chuqr o’rganib chiqishni talab qiladi.

Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin;

- Ingliz va o'zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning katta ko'pchligi semantik jihatdan bir-birini ta'minlaydi. Har ikki tildagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo'lishga undash ,dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi;
- O'zbek va ingliz tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma'no- mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqr tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir ingliz va o'zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi;
- Ingliz va o'zbek xalq maqollarining ko'pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir va hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;
- Hayvon obrazlari keltirilgan ingliz tilidagi maqollarning o'zbekcha muqobil variantlarida aynan bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma'nosiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Xullas, keltirib o'tgan mavzulardagi maqollarning har ikkala tilda unchalik katta farqlari topilmadi. Biroq asosiy manba sifatida foydalanayotgan kitobimiz K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" da ayrim maqollarning variantlari bir-biriga aynan to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham, maqollarning semantik jihatlarini chuqr o'rganish va ularni semantik tahlil qilish orqali ingliz va o'zbek tillaridagi ekvivalentlarni to'g'ri tanlay olamiz.

UMUMIY XULOSA.

Ingliz va o'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodining paremiologiya sohasi bo'yicha o'rganiladi va o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq o'g'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya'ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqollarda ibratlilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi.

Asosan, o'zbek va ingliz tiliga maqollar qadimdan to'plovchilik orqali yetib kelgan. Maqollar ustida qizg'in izlanishlar asosan 19-asrdan boshlangan bo'lib, o'zbek folklorshunoligida Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzaev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R. Zarifov kabi olimlar asosan maqollarni yig'ib ularni to'plam holiga keltirish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlar. Keyinchalik maqollarning ichki strukturaviy tuzulishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish ya'ni maqollar bo'yich tarjimashunoslik ishlari boshlangan. Bu o'rinda M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, G'.Salomov, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R. Rasulovlarning o'rni beqiyos. Ingliz maqollari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honek, Norik, Mayder, Teylor, Aroralarni ayta olamiz. Ular maqollarni o'ziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzulish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar.

O'zbek va ingliz maqollarining folklorda o'rganish tarixini qiyosiy o'rganish orqali qaysi tilda ularning tadqiq qilish darajasi mukammal yoki sayoz ekanligini ko'rib chiqdik. Bunga ko'ra maqollarni to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o'rmini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish

kabi masalalar deyarli bir xil. Biroq maqollarning nazariyalariga bag'ishlangan asarlarning ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'pligi ingliz maqollarining nazariy jihatlari o'zbek maqollariga nisbatan ko'proq o'r ganilganligini ko'rsatadi. Ingliz olimlari tomonidan ingliz va o'zbek maqollarining chog'ishtirma masalalari ko'rib chiqilmagan. O'zbek tilida o'zbek olimlari tomonidan bu ishga ko'p marotaba qo'l urilgan. Asosan o'zbek va ingliz maqollarini solishtirish uchun o'zbekcha tarjimalarini berish, muqobil variantlarini keltirish va semantik xususiyatlarini isbotlash ishlari qilingan. Shunga ko'ra, o'zbek va ingliz tillarida maqollarning nazariy va amaliy jihatlari o'r ganilgan. Maqollarning semantik xususiyatlariga ko'proq to'xtalingan. Ammo o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlari haqida uncha ko'p ishlar qilinmagan.

O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bo'g'liq ekanligi juda muhimdir. Shunga ko'ra, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lган barcha o'zbek va ingliz millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'r ganishda o'zbek va ingliz maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rasatib bera oladi.

O'zbek va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lган maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida ham uchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Xullas, ingliz va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli

maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir.

Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi. Oila va qarindosh urug'chilik munosabatlariga jiddiy qaralishi o'zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lган mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavdalanadi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida uchraydi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu ikki xalqning o'zaro o'xshash va farqlil jihatlarini o'rgana olamiz.

Bir so'z bilan aytganda, ingliz va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarningning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o'zbek xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o'zbek maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagи obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

Ingliz va o'zbek maqollarining semantik xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ayrim mavzudagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqdik va quyidagicha xulosalarga keldik. Ya'ni:

- Ingliz maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqr o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin;

- Ingliz va o’zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning katta ko’pchligi semantik jihatdan bir-birini ta’minlaydi. Har ikki tildagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo’lishga undash ,dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi;
- O’zbek va ingliz tillaridagi ko’pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma’no- mazmunga maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo’lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko’rsatiladi;
- Ingliz va o’zbek xalq maqollarining ko’pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo’lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir va hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobjiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi.
- hayvon obrazlari keltirilgan ingliz tilidagi maqollarning o’zbekcha muqobil variantlarida aynan bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma’nosiga ta’sir ko’rsatmaydi.

Xullas, keltirib o’tgan mavzulardagi maqollarning har ikkala tilda unchalik katta farqlari topilmadi. Biroq asosiy manba sifatida foydalanayotgan kitobimiz K.M.Karamatova va H.S.Karamatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” da ayrim maqollarning variantlari bir-biriga aynan to’g’ri kelmaydi. Shuning uchun ham, maqollarning semantik lingvokulturologik jihatlarini chuqur o’rganish va ularni semantik tahlil qilish orqali ingliz va o’zbek tillaridagi ekvivalentlarni to’g’ri tanlay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

Normativ huquqiy hujjatlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йил 10-декабрдаги “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ №1875-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирининг “Магистратура тўғрисидаги низом” 2012 йил 29 октябрдаги 418-сонли буйруғи.

Ilmiy asarlar ro'yhati:

3. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистан тарафидайтинг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1998. – 235б .
4. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 2-йисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. – Т.: 1999. – 57 б.
5. Абдуллаев Х.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий эстетик функциялари: Филол. фан. номзоди ...дис. Т., 2005. – 152 б.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.– М.: 1961. – 236 ст.
7. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 76 с.
8. Атаканова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Т., 2006. – 20с.
9. Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1966. – 200 с.
10. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. В кн.: Лексикология и лексикография. – М., 1977. –278 ст.
11. Влахов, С., Флорин, С. Непереводимое в переводе, - М., 1980. – 244 с.

12. Вяльцева С.И. Речевое использование английских пословиц. – М., 1977 – 106 с.
13. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.
14. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – М., 1995. – 232 с.
15. Головин Б.Н. Введение в языкознание (Издание 3-е). – М.: Высшая школа, 1977. – 311 с.
16. Горький М. Материалы и исследования. Т., 1934. – 146с.
17. Ирисқулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 256 б.
18. Камбарова З.А. Актуализация фразеологических единиц в языке английской газеты. – М., 1977; -166 ст.
19. Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988. – 309 с.
20. Качалова К.Н., Израилевич Е. Практическая грамматика английского языка. – Бишкек: Туркистан, 2005. – 660 с.
21. Кириллов В.И., Старченко А.А. Логика. – М.: Юрист, 2005. – 269 с.
22. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М., – Л.: 1960. – 446 с.
23. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. – М., 2004. – 281 с.
24. Корнилов О.А. Языковые картины мира как отражение национальных менталитетов. Автореф... докт. филол. наук. – М., 2000. – 45 с.
25. Ломтев Т.И. Предложение и его грамматические категории. – М.: Изд. МГУ, 1972. – 199 с.
26. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991. – 274 б.

27. Маслова Ю.С. Когнитивая лингвистика (учебное пособие). – М., 2004. – 281 с.
28. Махмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 230 б.
29. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.
30. Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. – Киев, 1971. – 191 с.
31. Расурова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Фан, 2005. – 268с.
32. Реймов Б.Х. Фразеологические единицы английского языка характеризующие эмоциональное состояние человека: Автореф. дис канд.филол.наук. – Ташкент, 2005. – 22с.
33. Розина Р.И. Человек и личность в языке // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М., 1991. – С.52-56.
34. Филицына В.П. О пословицах и поговорках как материале фразеологического словаря. В кн.: Проблемы фразеологии. – М – Л., 1964. – 78 ст.
35. Ширяев Е.Н. Культура русской речи и эффективность общения. – М., 1996. – 254 с.
36. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. Автореф. ... докт. филол. наук. – М., 1983. – 35 с.
37. Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными. Автореф.... канд. филол. наук. – Т., 1971. – 29 с.
38. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари ҳусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 49-55.

39. Язык и этнический менталитет / Отв.ред. З.К. Тарланов. – Петрозаводск, 1995. – 140б.
40. Якубов О. Эр бошига иш тушса. Сайланма. Т.:Адабиёт ва санъат, 1987. – 524 б.
41. Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. – 244p.
42. Azar B.S. Understanding and Using English Grammar. Third Edition. – N. – Y.: 1999. – 420 p.
43. Azar B.S., Azar D.A. Fundamentals of English Grammar. Second Edition. – USA.: Longman, 1994. – 420 p.
44. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N1. McGraw–Hill. – New–York.: 2004. – 416 p.
45. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N2. McGraw–Hill. – New–York.: 2004. – 265 p.
46. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N3. McGraw–Hill. New–York.: 2004. – 385 p.
47. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. Т. 1. – Т., 1968. -198 б.
48. Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. – M.: Prosvescheniye, 1979. – 342 p.
49. Falk, J. Linguistics and language: a survey of basic concepts and implication. 2nd Ed,- Canada: Michigan University Press, 1978, – 561p.
50. Fries Ch. The Structure of English. An Introduction to the Construction of English Sentences. – London.: Longman, 1963. – 385 p.
51. Galperin I.R., Stylistics. – M.: Higher School Publishing House, 1971. – 343p.
52. Hiraga M.K. Cultural, Psychological and Typological Issues in Cognitive Linguistics. – Armsterdam, Philadelphia: Benjamin, 1999. – 338 p.

- 53.Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p.
54. Ilyish B. The Structure of Modern English. – L.: Prosvesheniye, 1971. – 366 p.
- 55.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. - 303b.
- 56.Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, –2000. – 398 b.
- 57.Korunets I.V. Theory and Practice of Translating. - Vinnytsia: Nova Knyga, 2001. – 265p.
- 58.Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. – 103 p.
- 59.Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Т.: Sharq, 2010. – 207b.
- 60.Meider, W. Dundes, A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. - NewYork: Garland, 1995. – 340 p.
- 61.Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari . – Т.: Sharq, 2005. – 508 b.
- 62.Mollanazar, H. Principles and methodology of translation. - Tehran: SAMT, 2001. – 215p.
- 63.Newings M. Advanced Grammar in Use. – Cambridge: Cambr. Univ. Press, 2002. – 252 p.
- 64.Norrick, N.R. How Proverbs Mean? Semantic Studies in English Proverbs. - Amesterdom: Mouton, 1985. – 232 p.
65. Raymond Murphy. English Grammar in Use. Second Edition. Cambr. Univ. Press. 1995. – 350 p.
- 66.Razzaqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent, 1965. –236 b.
- 67.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi T.: 2000. – 156 b.

- 68.Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir.T.: O'zbekiston Madaniyati. – 1965. -213 b.
- 69.Samovar, Larry A., Richard E. Porter, and Lisa A. Stefani. Communication between Cultures. Edited by Randall Adams. Third ed, Wadsworth Series in Communication Studies. - Belmont, CA: Wadsworth Publishing, 2009. – 412 p.
- 70.Siedl J., McMordie W. English Idioms and How to Use them. – M., 1983. – 265p.
- 71.Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi(o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan .2008. – 120 b.
72. Swan M., Walter C. English Grammar. – Cambridge: Cambr.Univ. Press, 1990. – 152 p.
- 73.Taylor A. The Proverb. –Harvard University Press, 1985. –234 p.
- 74.Trench, C.R. On the Lessons in Proverbs. -New York: Redfield, 1853. – 157p.
- 75.Teliya V. Bragina N. Oparina E. Sandomirskaya I. Phraseology as a language of culture: its role in the representation of a collective mentality in Cowie (ed.) 1998. –203p.
- 76.O'zbek xalq maqollari, 2-tom T.: Fan. 1987. – 370 b.
- 77.O'zbek xalq maqollari 1-tom T.: Fan. 1987. – 365 b.

Foydalanilgan lug'atlar:

- 78.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – 608 с.
- 79.Бердиёров X, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 232 б.
- 80.Кунин А.В. Англо – русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык, 1984. – 942 с.
- 81.Маъруфов Т. Ўзбек тилининг изохли лугати. – Москва.: «Рус. язык», 1981, – 520 б.

82. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили этимологик лугати (туркий сўзлар). - Тошкент: Университет, 2000. - 402 б.
83. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати II/ араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. - Т.: Университет, 2003. - 335 б.
84. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли лугати. Т., 1990. - 523 б.
85. Cambridge Advanced Learners Dictionary. 2003. (Electron Version).
86. English Vocabulary in Use. Michael McCarthy., Felicity O'Dell. Cambridge University Press, - Cambridge, 1994. - 296 p.
87. Electronic Oxford Dictionary. 2005. (Electron Version).
88. Fergusson R. Dictionary of Proverbs, Penguin Books, 1983. - 325 p.
89. Hojiyev A., Nurmonov A. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lugati. - Т.: Sharq, 2001.
90. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003. - 364p.

Internet saytlari:

1. <http://www.oxfordhouse.com>
2. <http://www.yourdictionary.com>
3. <http://www.english-zone.com>
4. <http://www.longman.com>
5. <http://www.encarta.com>
6. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/302>
7. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>
8. <http://www.thesaurus.com/browse/proverb>
9. <http://www.cogweb.ucla.edu/Discourse/Proverbs/English.html>
10. http://www.executableoutlines.com/pdf/pr2_so.pdf

ILOVA

№	Inglizcha maqol	O'zbekcha ma'nosi	O'zbekcha ekvivalenti
1.	The higher the <i>ape</i> goes, the more he shows his tail.	Maymun qanchalik yuqori chiqsa, dumini shunchalik ko'proq ko'rsatadi.	<i>Echki</i> yugurib, <i>kiyik</i> bo'lolmas.
2.	An <i>ass</i> between two bundles of hay.	Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak.	Ikki <i>quyonning</i> ketidan quvgan, Ikkalasidan ham quruq qolar.
3.	An <i>ass</i> in a hon's skin.	Sher terisidagi eshak.	Kalla boshqa, salla boshqa.
4.	Catch the <i>bear</i> before you sell his skin,	Ayiqning terisini sotishdan oldin, o'zini tutgin.	<i>Ot</i> kimniki — minganniki, To'n kimniki — kiyganniki.
5.	A <i>bird</i> in hand is worth two in the bush.	Butadagi ikkita qushdan, qo'ljadi bittasi yaxshi.	Nasiya saryog'dan Naqd o'pka yaxshi.
6.	<i>Birds</i> of a feather flock together.	Bir balandlikda parvoz qiladigan qushlar galaga to'planishadi.	Har <i>qush</i> o'z to'pi bilan.
7.	Every <i>bird</i> likes its own nest.	Har qush o'z uyasini der.	<i>O'rgimchak</i> ham o'z uyim der.
8.	It is an ill <i>bird</i> that fouls its own nest,	Yomon qush o'z uyasini bulg'ar.	O'lgisi kelgan <i>shoqol</i> iniga qarab uvillar.
9.	Old <i>birds</i> are not to be caught with chaff.	Qari qushni tuzoq bilan tutib [aldab] bolmas.	To'rga tushgan <i>baliq</i> qarmoqdan qo'rmas.
10.	There are black <i>sheep</i> in	Har podaning o'z qora	Bitta tirraqi <i>buzoq</i> ,

	every flock.	qo'yi bor.	Bir to'p podani buzadi.
11.	All <i>cats</i> love fish but fear to wet their paws.	Mushuk baliqni xush ko'rар, ammo oyog'ini ho'llashdan qo'rqar.	<i>Baliqni</i> xush ko'rgan, qiltanog'idan qo'rmas.
12.	A <i>cat</i> in gloves catches no mice.	Mushuk qo'lqopda sichqon tutolmas.	<i>Burga</i> tutmoq uchun ham barmoqni ho'llamoq kerak.
13.	Teach the <i>cat</i> the way to the kirk.	Mushukni hosil bayramiga olib bormoq.	<i>Tulkiga</i> rahm qilsang, <i>Tovug'</i> ingdan ajraysan.
14.	What can you have of a <i>cat</i> but her skin.	Mushukdan terisidan o'zga nima ham olardingiz.	Daryodan bir tomchi, <i>To'ng'iz</i> dan bir tuk.
15.	When the <i>cat's</i> away, the mice will play.	Mushuk ketsa, sichqon o'yinga tushadi.	<i>Mushukning</i> o'lgani — <i>sichqonga</i> to'y.
16.	Don't count your <i>chickens</i> before they are hatched.	Jo'jalaringni tuxumdan chiqmasidan sanama.	Chuchvarani pishirib sana, <i>Jo'jani</i> — ochirib.
17.	As the old <i>cock</i> crows, so doth the young.	Yosh xo'roz qari xo'roz singari qichqiradi.	<i>Qush</i> uyasida ko'rganini qiladi.
18.	A <i>cock</i> is valiant on his own dunghill.	Xo'roz o'z go'ng uyimida botir.	O'z joyida <i>laycha</i> ham <i>sher</i> .
19.	All are not thieves that <i>dogs</i> bark at.	It hurigan har bir kishi ham o'g'ri bolavermaydi.	<i>It</i> hurishi — gumon tug'ishi.
20.	Better be the head of a <i>dog</i> than the tail of a <i>lion</i> .	Arslonning dumi bo'lgandan ko'ra itning boshi bo'lgan afzal.	<i>Arslonning</i> o'ligi — <i>sichqonning</i> tirigi.
21.	A <i>dog</i> in the manger.	Pichan ustidagi it.	O'zi yemas, <i>it</i> -

			ga bermas.
22.	The dogs bark, but caravan goes on.	Itlar hurar, karvon esa o'tar.	It hurar — karvon o'tar.
23.	Every dog has his day.	Har bir itning o'z kuni bor bo'ladi.	Omadi kelsa, sichqon filni yengadi.
24.	Let sleeping dogs lie.	Uxlab yotgan kuchuklarni uyg'otmang.	Yotgan ilonning quyrug'ini bosma.
25.	A dog will not howl if you beat him with a bone.	Itni suyak bilan ursang, vovullamaydi.	Itni suyak bilan ursangiz, qopmas.
26.	Keep a dog and bark oneself.	Iti bo'la turib, o'zi vovullar.	Eshak minganning oyog'i tinmas
27.	A living dog is better than a dead lion .	O'lik arslondan tirik it afzal.	O'lik arslondan t:rik sichqon a'lo.
28.	An old dog barks not in vain.	Qari it bekorga hurimaydi.	Qari it ko'p yo'l bilar.
29.	An old dog will learn no new tricks.	Qari it yangi hunar o'rganmas.	It qarisa, yotgan yeridan xuradi.
30.	A staff is quickly found to beat a dog with.	Itni urishga tayoq tez topiladi.	Tayoq maymunga namoz o'qitar.
31.	Two dogs over one bone seldom agree.	Ikki it bir suyak ustida kamdan-kam chiqisha oladi.	Itdan suyak ortmas, Mushukdan — bez.
33.	All is fish that comes to his net.	Nimaiki ilinsa to'riga — baliq boiib ko'rinar ko'ziga.	Tovuqning tushiga don kirar.
34.	Fish in the air.	Havoda baliq tutmoq.	Behuda harakat beburd qilar.
35.	The best fish are near	Baliqning sarasi suv	Baliq suvning chuqu-

	the bottom.	tubida suzadi.	rini, Mard ishning qiyinini izlar.
36.	Fish begins to stink at the head.	Baliq boshidan sasiy boshlaydi.	Baliq boshidan chiriysi.
37.	A fish out of water.	Suvdan tashqaridagi baliq.	Baliqning tirikligi suv bilan, Odamning tirikligi odam bilan.
38.	There's fish in the sea, as good.	Dengizda baliq kabi ko'p.	Keng bo'lsang, kam bo'l maysan.
39.	Nothing must be done hastily but killing of fleas .	Burga o'ldirishdan o'zga ishda shoshish kerak emas.	Shoshgan pashsha sutga tushar.
40.	Almost never killed a fly .	Hatto pashshani ham o'ldirmagan.	Mushugiga ham pisht demaydi.
41.	When the fox preaches, then beware your geese .	Tulki nasihat qila boshlaganda, g'ozlaringizni qo'riqlang.	Tulkining hiylasi ko'p, yaxshisi — qochmoq.
42.	The fox knows much, but more he that catches him.	Tulki ko'p narsani biladi, ammo uni tutgan ko'proq biladi.	Tulki qanchalar qochmasin, borar joyi — mo'ynado'zning do'koni.
43.	All his geese are swans.	Uning hamma g'ozlari oqqushdir.	Maqtanma g'oz , hunaring oz!
44.	As a hen with one chick .	Bitta jo'jali tovuq singari.	Hovliqqanga sichqon teshigi ming tanga.
45.	Back the wrong horse .	Xato tanlangan ot orqada qolar.	Ot bozori — baxt bozori.
46.	Change horses in the midstream,	Daryo oqimi-o'rtasida otlarni almashtirmoq.	Otning zo'ri qiya oshganda bilinadi.

47.	A good horse cannot be of a bad colour.	Yaxshi ot yomon tusli bo'lolmaydi.	Tusi yaxshidan chekinma.
48.	Half horse and half alligator .	Yarmisiga ot, yarmiga timsoh.	Ot tuz deydi, yigit — qiz.
49.	It is the last straw that breaks the camel's back.	So'nggi tomchi tuyaning belini sindirar.	Tuya elakka kelganda oqsar.
50.	Can the leopard change his spots?	Qoplon terisidagi dog'larni o'zgartirishi mumkinmi?	Ilon po'stini tashlagan bilan qilig'ini tashlamas.
51.	Beard the lion in his den.	Sherning soqdidan o'z uyasida ushlamoq.	Arslon bolasini tutmoq uchun, Arslon uyasiga kirmoq kerak.
52.	The lion is not so fierce as he is painted.	Sher aslida tasavvur qilganchalik qo'rqinchli emas.	Qo'rqoqqa ip ilon bo'lib ko'rindi.
53.	Throw smb. to the lions .	Sherlarga yem qilmoq.	Itlarga it o'limi.
54.	Pigs might fly, but they are very unlikely birds.	Cho'chqalar uchishi mumkin, ammo ular qushlarga aslo o'xshamas.	Baliqning ham sakkiz qanoti bor.
55.	Sell a pig in a poke.	Cho'chqani qopda sotmoq.	Bozordagi botmon quyruq, Taroziga tortgan quyruq.
56.	What do you expect from a pig but a grunt.	Cho'chqadan xo'r-xo'r dan boshqa nima ham kutardiz.	Eshak hangramasa, hangi demaslar.
57.	As a sheep among the	Jun oluvchilar oldidagi	Ochiq qolgan qozonni

	shearers.	qo'ydek.	<i>it</i> yalaydi.
58.	It one <i>sheep</i> leap over the dyke all the test will follow.	Agar bitta qo'y ariqdan sakrab o'tsa, qolganlari unga ergashadi.	Podani <i>qo'chqor</i> yetaklar.
59.	Let every <i>sheep</i> hang by its own shank fli	Har bir qo'y o'z oyog'idan osilsin.	<i>Qo'yni</i> ham o'z oyog'idan osadilar, <i>echkini</i> ham.
60.	One scabbed <i>sheep</i> infects the whole flock,	Bitta qo'tir qo'y butun podani bulg'ar.	Podada bitta tirraqi <i>ho'kiz</i> bo'lса, Butun podani tirriq qiladi.
61.	Greedy as a <i>wolf</i> .	Bo'ridek ochofat.	<i>Bo'rining</i> o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas.
62.	To keep the <i>wolf</i> from the door.	Bo'rini eshik oldida ushlarloq.	Och o'zini o'tga urar.
63.	Set the <i>wolf</i> to keep the <i>sheep</i> .	Bo'rini qo'y chivon qilmoq.	<i>Bo'ri</i> bor bolsin desang, <i>qo'y</i> but bolmas.
64.	Throw smb. to the <i>wolves</i> .	Kimnidir bo'rilarga tashlarloq.	Bo'rkni tashlab <i>bo'ridan</i> qutulib bo'lmas.
65.	Who's afraid of the big bad <i>wolf</i> ?	Katta yomon bo'ridan kim ham qo'rqardi?	<i>Bo'ri</i> qarisa, <i>itga</i> kulgi bo'lar.
66.	A <i>wolf</i> in <i>sheep's</i> clothing.	Qo'y terisidagi bo'ri.	<i>Bo'rini</i> to'q dema, dushmanni yo'q dema.